

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIIY FANLAR” FAKULTETI

“GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

**“Umumta'lim maktablarining 8-sinflarida Surxondaryo iqtisodiy rayoni
mavzusini o'qitish metodikasi”**

mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi

BAJARDI: “Geografiya o'qitish metodikasi”
ta'lim yo'nalishi IV- kurs talabasi

Eshonqulova S. _____

ILMIY RAHBAR: dots. Kalonov B. H.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
Kafedraning _____ sonli bayyonnomasi « _____ » _____ 2015 y.

Navoiy-2015

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiatshunoslik fakulteti Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasining
1-sonli yig`ilish bayonnomasidan

K O' C H I R M A

Navoiy shahri

27 avgust 2014 yil

Qatnashdilar: kafedra mudiri, kat. o`qit. Buranov Yo.R., dotsentlar: Raxmatov Yu. B., Kalonov B. H., katta o`qituvchilar: Abdiyeva Z.A., B. S. O`rinov, M. M. Qodirova, Sh. Sh. Norov, o`qituvchilar: S.Q.Negmatov, kabinet mudirasi: Fayziyeva Sh.U.

K U N T A R T I B I:

2014-2015 o`quv yilida “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to’g’risida

E S H I T I L D I: Kafedra mudiri, kat. o`qit. Yo. R. Buranov so`zga chiqib: Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining 1998 yil 31 dekabr № 362- sonli buyrug`iga binoan **“Oliy o`quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yiladigan talablar”** asosida tanlangan.

Geografiya o`qitish metodikasi ta’lim yo`nalishi IV-kurs “B” guruh talabasi **Eshonqulova Sadoqat** mavzular orasidan **“Umumta`lim maktablarining 8-sinflarida Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasi”** mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida **dots. B. H. Kalonov** belgilandi.

QAROR QILINDI:

Geografiya o`qitish metodikasi ta’lim yo`nalishi IV-kurs “B” guruh talabasi **Eshonqulova Sadoqat** **“Umumta`lim maktablarining 8-sinflarida Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasi”** mavzusi berilsin va ilmiy rahbar sifatida **dots. B. H. Kalonov** tayinlansin.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo. R. Buranov

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tabiatshunoslik fakulteti

Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası

Tasdiqlayman _____

Kafedra mudiri _____

2014 yil _____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____

(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi _____

“ _____ ” _____ 20____ yil. Kafedra majlisida tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar _____

4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yxati)

5. Chizma ishlar ro`yxati (chizmalar nomi aniq ko`rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№.	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi I.F.Sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№.	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq berilgan sana 20__ yil

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti
“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrası

2015 yil “___” _____

№ _____ yig`lish bayoni

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedraning barcha professor-o`qituvchilari

K U N T A R T I B I:

2014-2015 o`quv yili “Geografiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishi bo`yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to`g`risida

E S H I T I L D I:

Bitiruvchi _____ ning

Mavzusi: _____

Ilmiy rahbar: Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta`lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

Q A R O R Q I L I N D I:

Bitiruvchi _____ ning

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo. R. Buranov

**Davlat attestatsiya komissiyasining
RAISIGA**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi kunduzgi bo’lim IV- kurs “B” guruh talabasi _____ning

mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko’chirma, Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taqrizi, kafedraning rahbari tasdiqlash va ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, ichki va tashqi taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

b. f. n B. Ye. Jumaboyev

**Navoiy davlat pedagogika instituti
“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrasining
Bitiruv malakaviy ishi haqidagi**

XULOSASI

_____ kurs “_____” guruh talabasi _____ning _____

mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi kafedra yig’ilishida muhokama qilingan va Davlat Attestatsiyasi komissiyasiga himoyaga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

kat. o`qit. Yo. R. Buranov

M U N D A R I J A

Kirish.....

**I.BOB. SURXONDARYO VILOYATINING TABIIY SHAROITI VA
TABIIY RESURLARIGA IQTISODIY BAHO.....**

**1.1.Surxondaryo viloyatining geografik oʻrni, tabiiy sharoiti va tabiiy
resurslari.....**

1.2. Aholisi va mehnat resurslari.....

1.3. Xoʻjalik tarmoqlarining hududiy tarkibi. Sanoati.....

1.4.Qishloq xoʻjaligi gaografiyasi.....

1.5.Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.....

**II.BOB. SURXONDARYO IQTISODIY RAYONI MAVZUSINI
OʻQITISH METODIKASI.....**

**2.1. Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusining maktab geografiyasi
ta'limida tutgan oʻrni.....**

**2.2. Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusini oʻqitishning maqsadi,
vazifalari va taʼlim- tarbiyaviy ahamiyati.....**

**2.3. Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini oʻqtishda qoʻllanadigan
metodlar.....**

Xulosa.....

Adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatilgan sohalarini amalga oshirib borib, jamiyatimizning kelajagi uchun har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan. Dasturda ko'rsatilgan dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari jamiyat taraqqiyotini har tomonlama yetuk kadrlarsiz, ayniqsa o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Malakaviy pedagogik mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liqdir. Ayniqsa hozirgi axborot texnologiyalariga tayangan holda geografik hodisa, voqealarni hamda iqtisodiy geografik tushuntirishlarni o'quvchilar, talabalar ongiga yetkazish va shakllantirish har bir mutaxassis o'quvchilardan yuqori ma'suliyat talab qiladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi. Respublikamizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi.

Bu vazifalarni bajarishda geografik ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya fani o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o'z

ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanining umumiy ta'rifi mavzusida geografik mehnat taqsimoti tushunchasi tarmoqlar misolida har bir tarmoq xususiyatlari va joylashishi chuqur o'rganiladi. Ayniqsa tarmoqlarning iqtisodiy kartalari va darsliklardan xilma-xil mazmundagi kartalar hududiy ixtisoslashishi va tarmoqlar geografiyasidagi iqtisodiy aloqalarni bilib olishda katta ahamiyatga ega.

BMI ning o'rganilganlik darajasi O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi fani bo'yicha O.Mo'minov, M.Nabixonov, P.G'ulomov, P. Musayev, R.Qurbonniyozov, A.Hayitov, O'.Safarov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarda ilmiy g'oyalarni ko'rish mumkin. Ayniqsa bu olimlar zamonaviy geografiya fani oldida turgan dolzarb muamolar,geografiya fanini o'qitilishida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar,fanni ishlab chiqarish bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga asosiy etibor qaratganlar.

BMI ning maqsadi. Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda umumta'lim maktablarining 8- sinflari O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanida berilgan "Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitishda geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o'zlashtirilgan ko'nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o'qitishda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo'llarini yoritishga harakat qildim. Mavzuni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to'plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim.

BMI ning vazifasi. "Surxondaryo iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganishning asosiy jhati Surxondaryo viloyati geografiyasi hisoblanadi. "Surxondaryo iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganishda eng asosiy ob'yekti viloyatning geografik o'rne, aholisi va xo'jalik tarmoqlari yetakchi o'rin egallaydi. Bundan tashqari

viloyatning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari materiallari bir - biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu materiallar darslikdan materiallarni to'ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o'taydi. Umumiy holda aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablarining 8-sinfida o'tiladigan "Surxondaryo iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g'oyalarini jamlagan holda o'rganildi. Chunki bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur muhim bo'lib, mavzuni yoritishda mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi. Ko'nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan xarakatlar yig'indisidir. Bu iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'tiladigan "Surxondaryo iqtisodiy rayoni" mavzusini o'rganishda o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini amalda bajarishga intiladilar. Surxondaryo iqtisodiy rayonining tashqi mamlakatlar bilan olib borilayotgan aloqalari haqidagi bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to'ldirish orqali o'quvchilarda geografik ko'nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

BMI ning ilmiyligi. Surxondaryo iqtisodiy rayonini o'rganishda rivojlanayotgan viloyatlarning xo'jaligidagi rivojlanish sabablarini, iqtisodiy, madaniy yutuqlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografik mehnat taqsimoti mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu borada buyuk olim N.N.Baranskiy iqtisodiy geografik tadqiqotlarda geografik mehnat taqsimoti tushunchasini ahamiyatiga to'xtalib, bu tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun ahamiyati nihoyatda katta ekanligini, uning iqtisodiy nazariyasi boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'lovchi vosita ekanligini doim uqtirib kelgan. Bu tushuncha mavzusini o'rganishning deyarli barcha mavzularida viloyatlar, shaharlar, rayonlar, o'lkalar xo'jaligini o'rganishda xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası professor-o`qituvchilariga o`zimni minnatdorchiligimni bildiraman.

Bitiruv ishimni kelgusida umumta'lim maktablarining 8-sinfida O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan o`tiladigan mavzularida foydalanishga harakat qilaman.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. BMI da kirish, 2 ta bob, 8 ta bo`lim, xulosa va adabiyotlar ro`yxatini o`z ichiga qamrab oladi.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob`yekti va predmeti, ilmiy yangiligi o`z aksini topgan.

BMI ning I-bobi Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy baho berilgan bo`lib, Surxondaryo viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida o`zining agrosanoat majmuasi, xususan paxta va g`alla yetishtirish, chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu yerda tog`-kon sanoati polimetall rudalar, toshko`mir, neft, tuz, qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa qator o`zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning eng janubida, eng tog`li, eng issiq hududida joylashgan, viloyatda urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi eng past, demografik rivojlanish, ya`ni aholi tabiiy ko`payishi eng yuqori hududlardan biridir. Surxondaryo viloyati aholisining o`sish sur`ati so`nggi yillarda Qashqadaryo bilan birgalikda mamlakatimizda eng yuqori. Hozirgi kunda viloyat o`zining demografik salohiyati bo`yicha respublikamizda yettinchi o`rinda turadi. Surxondaryo viloyati xo`jaligi mintaqaning geografik o`rni, tabiiy sharoiti va resurslari, tarixiy rivojlanish xususiyatlari asosida shakllangan. Umuman olganda, viloyat iqtisodiyoti ko`proq agrar yo`nalishga ega. U respublika yalpi ichki mahsulotining 3,7, sanoat ishlab chiqarishining 1,9, qishloq xo`jalik mahsulotlarining 7,9 foizini ishlab chiqarmoqda.

BMI ning II-bobi Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasiga bag`ishlangan bo`lib, Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusining maktab geografiyasi ta'limida tutgan o`rni, Surxondaryo iqtisodiy rayonini

mavzusini o`qitishning maqsadi, vazifalari va ta`lim- tarbiyaviy ahamiyati, Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qtishda qo`llanadigan metodlar bayon etilgan. Har bir iqtisodiy rayonni o`quvchilarga o`qitish, o`rgatish qanchalik muhim bo`lsa, bu mavzuni o`rganish ham shunchalik katta aqamiyatga ega. Mavzuning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan o`quvchilarda mamlakat, uning alohida yiloyati uning sarxadlari tabiiy boyliklari, aholisi, xo`jaligi va yirik shaharlari haqidagi tushunchalarin ixtisoslashish tarmoqlarini shakllantiradi;

Ikkinchidan Surxondaryo iqtisodiy rayonning boshqa iqtisodiy rayonlar orasida tutgan o`rni, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli haqida o`quvchilarga ma'lumot berilib, ularning bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Uchinchidan o`quvchilarga yozuvsiz karta bilan ishlashni, atlasdan ko`chirishni o`rgatish, ularning rassomchilik faoliyatlarini shakllantirish va hozirgi kunda iqtisodiy rayon haqidagi bilimlarini ma'lum bir tizimga solishdan iborat.

To`rtinchidan darsni tashkil etishda muhim nuqtalar, xususan qanday geografik nomlar, yangi terminlar o`rganilishini aniqlab olish aloqida ahamiyatga ega.

Beshinchidan oldin o`rganilgan iqtisodiy rayon haqidagi bilimlardan qaysilari qaytariladi, qaysilariga suyanib bilim beriladi, boshqa fanlardan berilgan tushunchalardan qaysilari esaga olinadi, ya'ni fanlararo aloqaga ham e'tibor berishiga ham boqliq. Darsda bu mavzuning o`qitish ahamiyati o`quvchi o`z fanining bilimdoni va o`z ustida tinmay ishlashi ilgor tajribalari bilan bevosita boqliq.

Xulosa qismida- Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, maktab geografiya ta'limida o`tiladigan barcha mavzularning o`ziga xos jihatlari va ahamiyati bor. Maktablarda boshlang'ich geografiya, tabiiy geografiya ta'limidan so`ng iqtisodiy ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari bo'yicha bilim beriladi. O`qitiladigan mavzular darsdan darsga o`tgan sari murakkablashib va dolzarblashib boradi. Hozirgi zamon taraqqiyoti, fani rivojlanib borayotgan bir paytda maktablarda o`ziga xos ta'lim

jarayonini tashkil etish, o`quvchining bilim olishi uchun turli vositalardan foydalanishga o`rgatish muhim masaladir.

O`quvchining erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash va uni ma'lum bir mutaxassisliklar bo`yicha yo`naltirishda geografiya fanining hissi katta. Shu bilan birga bu fanni zamonga mos ravishda rivojlantirish, fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan bahramand etish har bir geografning vazifasidir. Maktablarda o`qitiladigan har bir mavzularning maqsadi va mazmunini ochib berishga, noan'anaviy dars turlarini joriy etishga erishmoq zarur.

I.BOB. SURXONDARYO VILOYATINING TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARIGA IQTISODIY BAHO

1.1.Surxondaryo viloyatining geografik o'ri, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.

Mamlakatimizning eng janubida joylashgan Surxondaryo viloyati 6 mart 1941 yilda tashkil topgan. Uning maydoni 20,1 ming kv. km bo'lib, jami O'zbekiston Respublikasi hududining 4,5 foiziga teng. Viloyatda, 2012 yil ma'lumotlari bo'yicha 2175,1 ming kishi yoki mamlakat aholisining 7,5 foizi istiqomat qiladi. Bundan ko'rinadiki, mintaqaning demografik salohiyati uning maydoniga nisbatan 1,6 marta yuqori.

Surxondaryo viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida o'zining agrosanoat majmuasi, xususan paxta va g'alla yetishtirish, chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu yerda tog'-kon sanoati (polimetal rudalar, toshko'mir, neft, tuz), qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda.




Mintaqa qator o'zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning eng janubida, eng tog'li, eng issiq hududida joylashgan; viloyat urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi eng past, demografik rivojlanish, ya'ni aholi tabiiy ko'payishi eng yuqori hududlardan biridir. Ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyati 13 ta qishloq tumani, 8 ta shahar va 114 ta shaharchalardan iborat. Har bir qishloq tumaniga o'rtacha 1,44 kv km maydon to'g'ri keladi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning dastlab tashkil etilgan (1926 yil) qishloq tumanlari Denov, Sariosiyo, Termiz va Sherobod, eng so'nggisi esa 1992 yilda tarkib topgan Bandixon tumani sanaladi¹. Maydoni bo'yicha eng kattalari Sariosiyo va Boysun, eng kichigi Angor (atigi 0,39 ming kv. km); ular orasidagi farq yaqin 10 barobar. Umuman olganda, Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Qumqo'rg'on tumanlari birgalikda 12,6 ming kv.km yoki viloyat maydonining 62,6 foizini egallaydi.

¹2011 йилда Бандихон тумани Қизирик туманининг таркибига киритилган.

SURXONDARYO TABIIY-GEOGRAFIK RAYONI

68° G'riyevichdan sharqda



Surxondaryo O'zbekistonning eng janubida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Hisor tog'ining janubiy etaklarida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi doirasida u shimolda Qashqadaryo viloyati bilan, geosiyosiy miqyosda esa g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston va janubda Afg'oniston davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakatimizda faqat Toshkent va Surxondaryo viloyatlari 3 tadan davlatlar bilan tutash, biroq bunday siyosiy geografik o'rin, geosiyosiy vaziyat Surxondaryo viloyati uchun o'zgacha xususiyat kasb etadi.

Surxondaryo hududining taxminan 70 foiz maydoni tog'liklardan iborat (Hisor, eng baland nuqtasi 4643 m; Qo'hitang va b.). Tabiiy geografik jihatdan u faqat janub tomonga "ochiq", xolos; qolgan uch tomondan tog'lar bilan o'ralgan. Bunday yer ustining tuzilishi, orografik vaziyat mintaqa iqlimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqlimi quruq, issiq, yog'in-sochin miqdori o'rtacha 130-180 mm, tog' yon bag'irlarida 600 mm gacha yetadi. Harorat respublika bo'yicha eng yuqori, vegetatsiya davri uzoq. Agroiklimiy sharoitlar sug'orma dehqonchilikni taqozo etadi. Bu yerda, mamlakatimizni boshqa hududlaridan farq qilib, subtropik xo'jalik yaxshi rivojlangan. Asosiy daryolari Surxon va Sherobod viloyat xo'jaligi va aholi geografiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi; ulardan barpo etilgan qator kanal va suv omborlari (Uchqizil, Qumqo'rg'on, Janubiy Surxon suv omborlari, Katta Hisor, Amu - Zang, Hazorbog' va boshqa kanallar) yordamida sug'orma dehqonchilikda foydalaniladi. Tog' yonbag'irlarida lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik uchun sharoit qulay. Umuman olganda, Surxondaryo respublikamizda nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan viloyat hisoblanadi.

Surxondaryo maydonining hajmi va yer usti tuzilishi bo'yicha respublikamizda Jizzax viloyatiga biroz o'xshab ketadi. Viloyat mineral - resurs salohiyatiga ham ega - toshko'mir (Sharg'un, Boysun), neft (Xavotog', Ko'kaydi, Uchqizil, Mirshodi, Jaloir va b.), polimetal rudalar (Xonjizza, Chakchar), tuz (Xo'jaikon), stronsiy (Sherobod), oxaktosh (Sherobod), turli xil qurilish sanoati xom ashyolari (Sayrab, Beshbuloq, Bandixon va b.) kabilar ahamiyatga ega. Ayni vaqtda mintaqada xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda (Malayziya va b.)

geologik qidiruv ishlari ham olib borilmoqda. Asosiy maqsad yangi neft va gaz konlarini topishdan iborat.

Surxondaryo farmatsevtika resurslariga boy, bu yerda respublika darivor o'simliklarining 35-40 foizi joylashgan. Shu o'rinda mintaqaning rekreatsiya va turistik salohiyatini ham alohida ta'kidlash joiz (Omonxona, Uchqizil, Xo'jaikon, Vaxshimor va b.). Viloyatning arxeologik topilmalari, at-Termiziy vatanining tarixiy yodgorliklari, ilk urbanizatsiya qoldiqlari, karst g'orlari, buloq va chashmalari, o'ziga xos tabiiy landshafti, qadamjo va ziyoratgohlari xalqaro va mahalliy, diniy va ekoturizmning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Termiz shahrida tashkil etilgan geologik muzey ham katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Surxondaryo viloyatining iqtisodiy va siyosiy geografik o'rnini uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun uncha qulay emas, tabiiy-resurs salohiyatini esa ijobiy baholash mumkin.

1.2. Aholisi va mehnat resurslari.

Surxondaryo viloyati aholisining o'sish sur'ati so'nggi yillarda Qashqadaryo bilan birgalikda mamlakatimizda eng yuqori. Hozirgi kunda viloyat o'zining demografik salohiyati bo'yicha respublikamizda yettinchi o'rinda turadi. 1989 yilda, ya'ni so'nggi aholi ro'yxati bo'yicha 1253,8 ming, 2000 yilda 1771,2 ming kishi aholi bo'lgan. Demak, 22 yilda aholi soni 862,7 ming kishiga, shu jumladan, oxirgi 11 yilda 345,3 ming kishiga ko'paygan. Nisbiy ko'rsatkichlarda viloyat aholisi 1989-2011 yillarda 4,7 va 2000-2011 yillarda 1,2 marta ko'paygan. Garchi demografik rivojlanish sur'ati so'nggi yillarda biroz pasaygan bo'lsada, u respublikamizda eng yuqori hisoblanadi. Aholi sonining bunday o'sishi yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, xalq iste'mol mollarini ko'proq ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi.

Tumanlar miqyosida eng ko'p aholi soni Denov tumanida (331,7 ming kishi, 2011 y.). U mamlakatimizning Asaka, Urgut, Shahrisabz, Yakkabog` tumanlari singari eng ko'p aholi soniga ega bo'lgan birlamchi ma'muriy birliklar hisoblanadi. Umuman olganda, 1989-2011 yillarda aholi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati yuqori bo'lgan qishloq tumanlariga Sho'rchi, Sherobod, Termiz, Oltinsoy, Muzrabot, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on va Denov, o'rtacha ko'rsatkichlarga Qiziriq hamda Sariosiyo va past ko'rsatkichli hududlarga Angor, Boysun va Uzun tumanlari kiradi.

Aholi zichligi viloyat bo'yicha 1 kv km maydonga o'rtacha 108,2 kishi bo'lib, u Boysun tumanidagi 27 kishidan Denov tumanidagi 442 kishigacha farqlanadi (41-ilovaga qarang). Mintaqa aholi geografiyasini asosan Surxon daryosi (viloyat nomi ham Surxondaryo) va unga parallel o'tgan temir hamda avtomobil yo'llari belgilab beradi. Aholi joylashuvi, eng avvalo, yangi o'zlashtirilgan Surxon - Sherobod massivida, qadimdan qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda zich, tog` va tog` oldi hududlarida esa u nisbatan siyrak (masalan, Boysun yoki Sariosiyo tumanlari).

Aholining bunday tez sur'atlarda o'sishiga tabiiy ko'payish hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Surxon vodiysi Qashqadaryo viloyati bilan birgalikda respublikamizda

so'nggi yillarda kuzatilayotgan tug'ilish va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining pasayib borish jarayoni bilan bog'liq **demografik to'liqlarning** eng so'nggi pallasida turadi. Boshqacha qilib aytganda, respublikamiz poytaxti Toshkent shahri va Toshkent viloyatida boshlangan bu jarayon asta-sekinlik bilan aynan shu mintaqada poyoniga yetadi, so'nib boradi. Binobarin, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari O'zbekiston Respublikasi demografik rivojlanishining hozirgi holatini ko'p jihatdan belgilab beradi.

1-jadval

Surxondaryo viloyati aholisining tabiiy va migratsion harakati

(2012 yil, promilleda)

	Shaharva tumanlar nomi	Tabiiyharakat			Mexanikharakat		
		tug'ilish	o'lim	tabiiy ko'payish	kelgan lar	ketgan lar	migratsiy a qoldig'i
	Viloyat bo'yicha	23,7	3,9	19,8	5,4	5,6	-2,4
	Termizsh.	20,9	4,5	16,4	8,1	3,9	4,2
	tumanlar:						
1	Angor	26,3	4,3	22,0	7,4	6,3	1,1
2	Bandixon	24,8	3,1	21,7	10,0	9,1	0,9
3	Boysun	28,0	4,4	23,6	9,2	4,1	5,1
4	Denov	23,6	4,1	19,5	3,1	3,8	-0,7
5	Jarqo'rg'on	24,3	4,2	20,1	4,1	5,5	-1,4
6	Muzrabot	23,4	3,4	20,0	9,2	9,4	-0,2
7	Oltinsoy	23,8	3,9	19,9	5,5	5,3	0,2
8	Sariosiyo	26,4	3,7	22,7	3,9	5,7	-1,8
9	Termiz	24,0	4,8	19,2	4,5	1,8	2,7
10	Uzun	26,1	4,3	21,8	2,7	4,2	-1,5
11	Sherobod	23,0	4,1	18,9	5,0	6,5	-1,5

12	Sho'rchi	23,6	4,2	19,4	6,8	8,3	-1,5
13	Qiziriq	25,9	3,5	22,4	7,9	9,7	-1,8
14	Qumqo'rg'on	23,9	3,5	20,4	3,6	4,5	-0,9

Jadval O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlari tahlili ko'rsatishicha, Surxondaryo viloyati va uning barcha qishloq tumanlarida aholining tug'ilish koeffitsiyenti yuqori. Bir yilda tug'ilganlar soni 50-52 ming kishiga barobar. Ta'kidlash joizki, bu yerda ham tug'ilish va tabiiy ko'payish tobora pasayib bormoqda. Mazkur jarayon respublikamizning barcha mintaqalariga xos demografik vaziyatdir. Biroq, Surxondaryoda tug'ilish ko'rsatkichlari kamayib borayotgan bo'lsada, u hamon mamlakat miqyosida eng yuqori. 2008 yilda viloyatda tug'ilish 25,8 promille bo'lgan holda, u 2010 yilda 24,3 promilleni tashkil qilgan; o'lganlar, mos ravishda, 3,9 va 4,0 ‰, tabiiy ko'payish - 21,9 va 20,3 ‰. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tug'ilish koeffitsiyenti xususan, Boysun, Uzun, Angor va Sariosiyo tumanlarida yuqori. Ayni vaqtda u Termiz va Jarqo'rg'on tumanlarida o'rtacha, Muzrabot, Denov hamda Sherobod tumanlarida esa nisbatan pastroq.

Tug'ilishning yuqori bo'lishiga qator sabablar ta'sir qiladi. Ular jumlasiga aholining milliy tarkibida demografik mayli yuqori bo'lgan mahalliy millat vakillarining (o'zbeklar, tojiklar) ko'pligi, urbanizatsiya va aholi bandligi darajalarining pastligi, urf-odatlar va boshqalar kiradi. Viloyat aholisining 83,8 % o'zbeklar, 12,5 % tojiklardan iborat (2011 y.). Boshqa millat vakillari orasida turkman va ruslar ko'proq.

Mamlakatimizning boshqa mintaqalarida bo'lganidek, Surxondaryoda ham tashqi migratsiya natijasi salbiy oqibatlarga ega. Ayniqsa, Qiziriq va Sariosiyo qishloq tumanlarida bu manfiy ko'rsatkich ancha yuqori. Ish o'rinlarining yetishmasligi ham aholining ko'chib yurishiga olib kelmoqda.

1.01.2011 yil holatiga viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1168,5 ming kishi, iqtisodiy faol aholi - 832,7 ming, iqtisodiyotda band bo'lgan aholi 784,4 ming kishini tashkil qilgan; 2010 yilda jami yaratilgan ish o'rinlari

63,8 ming ta, ularning asosiy qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda xizmat ko'rsatish va servis sohaslariga to'g'ri keladi.

Jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning asosiy qismi moddiy ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Sanoatda 3,6 %, qishloq va o'rmon xo'jaligida 47,0 %, transport va aloqada 1,7 %, qurilishda 9,2 %, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnik ta'minotda 12,7 % band. Nomoddiy sohaslar tarkibida bu borada ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish hamda sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot yetakchilik qiladi. Yuqoridagi raqamlar mintaq xo'jaligining tarkibi va urbanizatsiya darajasini ham o'zida aks ettiradi. Xususan, sanoatda bandlik koeffitsiyentining pastligi viloyat iqtisodiyotini ko'proq agrar xususiyatga egaligidan dalolat beradi.

Surxondaryo viloyatida 2011 yil ma'lumotlari bo'yicha, 8 ta shahar va 114 ta shaharchalar qayd etilgan. Ularda jami aholining 37,0 foizi yashaydi. Bu jihatdan u mamlakatimizda faqat Xorazm viloyatidan oldinda turadi, xolos (34,2 %). Taqqoslash uchun, 2008 yilda urbanizatsiya darajasi Surxondaryoda 19,1 % bo'lgan. Hozirgi mavjud 114 ta shaharchalarning 107 tasi 2009 yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturini amalga oshirilishi bilan ushbu maqomni olgan (respublika yangi shaharchalarining 10,7 %). Bunday shaharchalar, aniqrog'i-agroshaharchalar viloyatning barcha qishloq tumanlarida bor. Ularning eng ko'pi Oltinsoyda (14 ta), Denovda va Angorda (11 tadan), Qumqo'rg'on va Muzrabotda (10 tadan) kuzatiladi. Eng kami esa Bandixon tumaniga to'g'ri kelib, bu yerda birgina tuman markazi – Bandixon shaharcha unvoniga muyassar bo'lgan.

Viloyat urbanistik tarkibi ham iqtisodiyotning tarmoqlar va hududiy tarkibiga mos holda yaxshi rivojlangan. Termizda 132 mingga yaqin aholi bor, ikkinchi shahar Denovda 70,0 mingdan ziyodroq. Sherobod, Boysun, Jarqo'rg'on, Sho'rchining har birida 20-30 ming kishidan aholi yashaydi. Qolgan yuzdan ortiq shahar joylar kichik va mayda sinflarga mansub (jami 116 ta).

Qishloq aholi punktlari 865 ta, o'rtacha har bir qishloqqa 1700 kishidan to'g'ri keladi. Bu raqam cho'l hududida joylashgan Navoiy va Buxoro viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasidan katta, intensiv dehqonchilik rivojlangan voha va

vodiylardan (masalan, Farg`ona vodiysi viloyatlari) ozroq. Demak, Surxondaryoda o`rtacha kattalikdagi qishloqlar ko`p.

Tog`li hudud hisoblangan Surxondaryo viloyatida qishloq aholi punktlari balandlik mintaqalari bo`yicha turlicha taqsimlangan. Jumladan, Angor, Bandixon, Jarqo`rg`on, Muzrabot, Termiz va Qiziriq tumanlarining qishloqlari to`liq dengiz sathidan 500 metrgacha bo`lgan balandlikda joylashgan. Boysun, Sariosiyo va Uzun tumanlarida esa bunday gipsometrik masofada birorta qishloqlar yo`q, ularning aksariyati tog` oldi hududlarida o`rnashgan. Faqat Oltinsoy tumani qishloq aholi manzilgohlari barcha balandlik mintaqalaridan o`rin olgan.

1.3. Xo'jalik tarmoqlarining hududiy tarkibi. Sanoati.

Surxondaryo viloyati xo'jaligi mintaqaning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, tarixiy rivojlanish xususiyatlari asosida shakllangan. Umuman olganda, viloyat iqtisodiyoti ko'proq agrar yo'nalishga ega. U respublika yalpi ichki mahsulotining 3,7, sanoat ishlab chiqarishining 1,9, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 7,9, chakana savdo hajmining 6,0 va pullik xizmatlarning 3,1 foizini beradi. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda viloyat ulushi 2,2, kapital qo'yimalarda 3,9, eksport hajmida 2,1 va importda bor-yo'g'i 0,3 % (2010 y.). Eslatib o'tamiz, Surxondaryoning mamlakat aholisidagi ulushi 7,5 foizga teng.


Demak, yuqoridagi statistik ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, bu yerda asosan qishloq xo'jaligi respublika ahamiyatiga ega, qolgan sohalar esa sust rivojlangan. Ayniqsa, demografik salohiyati katta va tez yuksalib borayotgan hududda xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish hajmining kamligi katta muammoni yuzaga keltiradi. Investitsiya muhitining uncha yaxshi emasligi, tashqi savdo aylanmasining ozligi ham mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligini ko'rsatib turibdi.

Viloyat iqtisodiyotining ichki tarkibi quyidagicha (jami yalpi hududiy mahsulot hajmiga nisbatan, 2010 y.): sanoat – 8,0 %, qurilish – 7,1 %, qishloq xo'jaligi – 40,4 %, transport va aloqa - 11,5 %, savdo va umumiy ovqatlanish – 8,5 %, soliqlar - 4,3 %, boshqa tarmoqlar – 20,1 %. Qizig'i shundaki, 2000 yilda sanoat viloyat yalpi hududiy mahsulotining 18,6 foizini ta'minlagan. Ko'rinib turibdiki, makroiqtisodiyotning ushbu tarmog'i viloyatda yanada zaiflashgan, xo'jalik yo'nalishi yanada agrarlashib borgan. Sanoat bo'yicha u respublikamizda faqat Jizzax viloyatidan oldinda, agroiqtisodiyotda esa birinchi o'rinda turadi.

Kichik tadbirkorlik yoki biznesning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi hissasi tobora oshib bormoqda (71,7 %). Bu esa bozor islohotlarining izchil amalga oshirilishidan darak beradi. Qishloq xo'jaligida uning ulushi 99,2, qurilishda 79,0, chakana savdoda 41,2 %, sanoatda esa 16,4 %.

2010 yilda umumiy investitsiya miqdori 585,9 mlrd. so'm bo'lib, uning asosiy qismi korxonalar va aholi mablag'laridan qoplanadi; xorijiy investorlar tomonidan kiritilgan mablag' 6,5 % ga teng. Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'li hamda yoqilg'i resurslarini aniqlash bo'yicha geologik-qidiruv ishlari bilan bog'liq harajatlar qisman xorijiy investorlar (Yaponiya, Malayziya va b.) hisobidan amalga oshirilmoqda. Noishlab chiqarish tarmoqlari orasida bu borada uy-joy qurilishi, ta'limning ulushi yuqoriroq.

1-rasm. Surxondaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining tarmoqlar tarkibi
(jamiga nisbatan foizda, 2010 y.)



Sanoati. Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi, mavjud xom ashyo va mineral resurslarga qaramasdan eng so'nggi yillarda biroz rivojlanish ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Shakllanib borayotgan sanoat majmuasi tarkibida yoqilg'i-energetika majmuasining ulushi 20,0 %, qurilish materiallari 3,7 % bo'lgan holda, yengil sanoat jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 45,4 foizini, oziq-ovqat sanoati 16,6 foizini ta'minlaydi. Yoqilg'i sanoatida asosan ko'mir (Boysun, Sharg'un), yengil sanoatda ko'proq paxtani qayta ishlash, oziq-ovqatda omuxta yem va un-yorma sanoati yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, og'ir sanoat tarmoqlari, xususan mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo, elektr energetika, ancha past ko'rsatkichlarga ega. Ayniqsa, viloyatning elektr energetika va qurilish bazasining zaifligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, jumladan, "Qishloq" dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirishga tegishli imkoniyatlar

yaratmaydi. Bu yerda atigi kichkina To'palang SES bor, xolos; sement zavodi esa hozircha umuman yo'q (u Sherobodda qurilmoqda).

Sanoat korxonalarining umumiy soni 1015 ta, shundan 25 tasi faoliyat ko'rsatayotgan yirik sanoat korxonalari hisoblanadi. Ko'rilayotgan yilda xalq iste'mol mollarining 68,5 foizini oziq-ovqat, 2,3 foizini yengil va 8,7 foizini vino-arok va pivo ichimliklari tashkil qiladi. Oziq-ovqat sanoati tarkibida yog'moy, konserva ishlab chiqarish yaxshiroq rivojlangan. Bu sanoat tarmoqlarining asosiy markazi Denov shahri - bu yerda yirik yog'-ekstraksiya, vino-arok zavodi bor. Umuman olganda, bir yilda 119 ming tonna paxta tolasi (bu Jizzax, Xorazm viloyatlariga qaraganda ancha ko'p yoki respublikaga nisbatan 9,5 %), 65 ming t omuxta yem, 103 ming t un ishlab chiqariladi. Paxta tozalash zavodlari aksariyat paxta yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq tumanlari markazlarida joylashgan, omuxta yem va un esa asosan "Surxondonmahsulotlari" va "Sho'rchidonmahsulotlari"da ishlab chiqariladi.

Viloyatda neft konlari Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ishga tushirilgan, ushbu sanoatning asosiy tashkil qiluchi markazi Jarqo'rg'on shahri. Qazib olinadigan neft 2010 yilda ancha ko'paygan, u neft mahsulotlari bilan birgalikda 350 ming tonnaga yaqin. Ko'mir qazib olish ham biroz oshgan. Hozirgi vaqtda yiliga 200 ming tonnadan ortiqroq ko'mir qazib olinadi. Ta'kidlash joizki, respublikamizda sifatli toshko'mirni faqat shu viloyat yetkazib beradi. Neft va ko'mir sanoati negizida Havotog', Ko'kaydi, Lalmikor, Sharg'un kabi "resurs" shaharchalar tashkil topgan.

So'nggi yillarda qurilish materiallari sanoati ham rivojlanib bormoqda. Jumladan, hozirgi vaqtda Sherobodda mahalliy xom ashyo asosida yirik va umuman Janubiy O'zbekistonda yagona sement zavodi qurilmoqda. Termiz va qishloq tumanlari markazlarining ko'pchiligida g'isht zavodlari bor. Rivojlanib borayotgan qurilish bazasi viloyatda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" Davlat dasturida belgilangan katta hajmdagi uy-joy, transport va boshqa infratuzilmalarni qurishga qulay imkoniyat yaratadi.

2009 yilda 20,5 ming t tozalangan o'simlik yog'i (2010 yilda 17,9), 3,3 ming t sovun olingan (Denov shahri). Sanoat geografiyasida Sho'rchi va Denov shaharlari oldinda; ularning har biriga 12-14 foizdan viloyat sanoat mahsuloti to'g'ri keladi. Eng yetakchi sanoat markazi esa Jarqo'rg'on bo'lib, u viloyat yalpi sanoat mahsulotining 1/5 qismini beradi (2000 y. - 16,4 %), uning yirik korxonasi "Surxonteks" qo'shma korxonasi hisoblanadi. Sherobodning ulushi 9,3 %, viloyat markazi Termiz esa atigi 8,8 % sanoat mahsulotini beradi. Bu bilan u O'zbekiston viloyatlari markazlari orasida alohida ajralib turadi. Shahar sanoat salohiyatining pastligi, eng avvalo, uning geografik o'rni bilan bog'liq. 42-ilova ma'lumotlari ko'rsatishicha, Bandixon, shuningdek Termiz tumanida sanoat ishlab chiqarish deyarli yo'q darajada. Oltinsoy va qizig'i shundaki, Boysun tumanining ko'rsatkichlari o'ta past.

Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishda ham geografik manzara shunga o'xshash; bu borada Denov va Sho'rchi shaharlari asosiy mavqega ega (birgalikda 53,7 %). Mazkur shaharlarda yog`, un, vino-arok kabi iste'mol mollari ishlab chiqariladi. Past ko'rsatkichlar Bandixon, Qiziriq, Oltinsoy va Angor tumanlarida qayd etiladi. Real holat aholi jon boshiga hisoblaganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishida bu ko'rsatkich Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Sherobod va Qiziriq tumanlarida yuqori; Oltinsoy, Muzrabot, Bandixonda o'ta past, Termiz, Uzun, Boysunda ham u o'rtachadan ancha past. Xalq iste'mol mollari ham vaziyat deyarli shunga o'xshash (44-ilova).


Yuqorida ta'kidlanganidek, viloyatda farmatsevtika resurslari, ya'ni turli xil dorivor o'simliklar ko'p. Ular asosan tog` va tog` oldi hududlarda o'sadi. Mavjud xom ashyo negizida Termiz shahrida "Ajanta" o'zbek-hind qo'shma korxonasi qurilgan bo'lib, u turli xil dori-darmonlar ishlab chiqaradi.

SURXONDARYO NILOYATI. IQTISODIY KARTA


Asosiy sanoat tarmoqlari:
yengil (paxta tozalash), oziq-ovqat, un tortish-yorma

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:
donchilik, paxtachilik (ingichka to'ali), bog'-dorchilik (subtropik ekinlari) va uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, qo'ychilik, ipakchilik


SHAHAR VA QISHLOQ AHOLISINING SONI
(foiz hisobida)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SURXONDARYO VILOYATINING SALMOGI
(foiz hisobida)




QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOAT YALPI MAHSULOTLARI HAJMI




ISHLOV BERUVCHI SANOAT



Yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoat punktlari



Sanoat tarmoqlari



UNDIRUVCHI SANOAT



QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI

Sug'orma dehqonchilik zonasi

paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, ipakchilik, asalarichilik va sut-go'sht chorvachiligi

sabzavotchilik, bog'dorchilik, asalarichilik va sut-go'sht chorvachiligi

Lalmi dehqonchilik zonasi

donli ekinlar, ba'zi yerlarda texnik ekinlar va go'sht-sut chorvachiligi

Cho'l - yaylov zonasi


cho'l-yaylov chorvachiligi (qorako'lchilik, va go'sht-jun qo'ychiligi)

Tog' - yaylov zonasi

tog'-yaylov chorvachiligi (go'sht-jun qo'ychiligi, go'sht-sut chorvachiligi) daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar

Qo'riqlanadigan yerlar

KENG TARQALGAN RAYONLAR



RAYONLAR

MASHTAB 1:1 000 000

1.4.Qishloq xo'jaligi geografiyasi

Surxondaryo viloyati qulay agroiklimiy sharoitlarga ega. Vegetatsiya davri uzoq, ijobiy haroratlar yig'indisi 5500^0 - 5900^0 ni tashkil qiladi. Shu bois, bu yerda turli xil issiqsevar subtropik mevalar yetishtiriladi. Bu borada mintqa respublikamizda alohida ajralib turadi. Vodiya anjir, anor, bodom, pista, yong'oq, uzum, xurmo, limon kabi mevalar, har xil ko'katlar ko'plab yetishtiriladi. Dastlab xurmo mamlakatimizning asosan shu hududida yetishtirilgan bo'lsa, hozirgi kunda uning geografiyasi kengaydi, boshqa viloyatlarni ham qamrab oladi (yangiliklarning diffuzion tarqalishi ro'y berdi). So'nggi yillarda sifatli ingichka tolali paxta respublikamizda faqat shu yerda yetishtiriladi, biroq uning maydoni va hosili kamayib bormoqda.

2010 yil yakunlariga qaraganda, jami qishloq xo'jalik mahsulotlarining 58,2 foizini dehqonchilik bergan; fermer xo'jaliklarining hissi 35,7, dehqon xo'jaligiga esa 63,2 foiz yalpi mahsulot to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni 1175,5 ming ga yoki viloyat jami maydonining yarmi. Yerdan qishloq xo'jaligida foydalanish koeffitsiyenti, ayniqsa, Uzun, Sariosiyo kabi tog'li hududlarda joylashgan tumanlarda past: Uzun tumanida u 40,7, Sariosiyoda esa 38,5 % ga teng. Shuningdek bu ko'rsatkich Termiz tumanida ham katta emas-31,3 % (01.01.2011 y.). Intensiv asosda qishloq xo'jaligi, aniqrog'i – sug'orma dehqonchilik viloyatning pasttekislik hududlarida joylashgan yangi o'zlashtirilgan yerlarda olib boriladi.

Jami ekin maydoni 281,6 ming ga, sug'oriladigan yerlar 241,7 ming ga. Bu qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 23,9 foizi demakdir. Mazkur ko'rsatkich Qiziriq, Angor, Bandixon tumanlarida yuqori, Boysun va Qumqo'rg'onda esa eng past (43-ilovaga qarang). 2010 yilda 272,3 ming gektar yerga turli xil ekinlar ekilgan. Donli ekinlardan bug'doy, sholi, makkajo'xori ekiladi. Ularning umumiy maydoni 119 ming ga, yalpi hosil 630 ming tonna, hosildorlik o'rtacha 51,3 s/ga. Bu ko'rsatkichlar 2009 yilga qaraganda birmuncha past. Bug'doy 115 ming gektar maydonga ekilgan, qisman u tog'li hududlarda

lalmikor yerlarda ham yetishtiriladi. 2010 yilda 595 ming t bug`doy hosili yoki respublikada yetishtirilgan bug`doyning 1/10 qismidan ko`prog`i olingan; o`rtacha hosildorlik 51,9 s/ga. Sholi Surxon va Amudaryo bo`ylarida, nisbatan sersuv yerlarda yetishtiriladi. Bir yilda 8-9 ming tonna atrofida sholi olinadi.

Paxtachilikka 119 ming ga yer ajratilgan, yalpi hosil 336 ming tonna (bu borada u respublikamizda oldingi o`rinlarda turadi), hosildorlik 28,1 s/ga – bu mamlakatimizning ko`pchilik hududlariga qaraganda ancha yuqori². Paxta to`liq fermer xo`jaliklarida yetishtiriladi. Boshqa texnika ekinlaridan asosan masxar ekiladi (maydoni 3,0 ming gektardan ziyodroq). Kartoshka 7,4 ming ga yerga ekilib, ulardan 2010 yilda 128 ming tonna hosil olingan. Sabzavot maydoni 13,2 ming ga, yalpi xosil 486 ming t. Qishloq xo`jaligining bu tarmog`i xususan Termiz tumanida yaxshi rivojlangan. Viloyatda kartoshka, sarimsoqqiyo, pomidor, bodring, bulg`or qalampiri, har xil ko`katlar erta yetishtirilib, respublika markazlariga, jumladan, Toshkent bozorlariga keltiriladi.


Viloyatda ekin ekiladigan yerlarning 7,8 ming gektari yem-xashak ekishga ixtisoslashtirilgan. Bunday maydonlar tog` va tog`oldi hududlarida joylashgan qishloq tumanlarida ko`proq. Tog` va, xususan, tog` oldi hududlar bog`dorchilik va uzumchilik uchun qulay. Bu yerda turli xil mevalar, ayniqsa olma, xurmo, uzum ko`p yetishtiriladi, tog`li hududlarda pistazorlar mavjud. Jami mevazorlar bilan 14,4 ming gektar yer band; yalpi hosil 92 ming t. uzum, mos ravishda 14,2 va 7,7. Uzum yetishtirish bo`yicha Oltinsoy tumani ajralib turadi. Bu yerda ko`plab mayiz ham tayyorlanadi, Denov tumani boshqa hududlarga qaraganda subtropik bog`dorchilik va sitrus mevalarini yetishtirishga ko`proq ixtisoslashgan.

Viloyat agrosanoat majmuida 2010 yilda 113 ming t go`sht (tirik vaznda), 508 ming t sut, 156 mln dona tuxum, 1917 t jun olingan bo`lib, ularning aksariyat qismi dehqon xo`jaliklarida yetishtiriladi. Shuningdek, bu yerda 6,2 ming dona qorako`l terisi (2009 yilda 8,9), 1,5 ming t pilla ham olinadi. Qumqo`rg`on tumanida tashkil etilgan “Oqqapchig`ay” zavodi nasldor qo`ylar yetishtirishga

²2009 йилда жами пахта ҳосили 350 минг т., ҳосилдорлик 29,3 ц/га бўлган.

ixtisoslashtirilgan. Viloyatda zotdor hisor qo'ylari, angor echkilari boqiladi. Ularning soni bo'yicha Surxondaryo viloyati O'zbekistonda 3-o'rinda turadi. Umuman olganda, mintaqada jami 689 ming bosh yirik shoxli qoramollar hamda 1701 ming bosh qo'y va echkilar boqiladi³.

2-rasm. Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik ekinlarining tarkibi (2009 yil, mingga)



Qishloq xo'jalik geografiyasida Denov tumani keskin ajralib turadi, u viloyatning bu tarmoqlardagi yalpi mahsulotini 14,3 foizini ta'minlaydi. Keyingi o'rinlarda esa Qumqo'rg'on, Uzun, Jarqo'rg'on, Sherobod, Qiziriq tumanlari turadi. Ayni vaqtda Termiz, Boysun, Bandixon tumanlarining agroiqtisodiy salohiyati ancha past. Biroq aholi jon boshiga hisoblaganda, o'zgacha xulosalar chiqarish mumkin. 2010 yil yakunlari bo'yicha yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rtacha bir kishiga hisoblaganda, Qiziriq, Bandixon va Uzun tumanlarida yuqori, eng past ko'rsatkichlar esa Sariosiyo va Sho'rchi tumanlarida kuzatiladi.

Boshqa mintaqalarda bo'lganidek, Surxondaryo viloyatida ham fermerchilik rivojlanib bormoqda. Mulkchilikning ushbu shakli, xususan, paxtachilik, bog'dorchilik va boshqa sohalarda keng tarqalgan. Viloyatda jami fermer xo'jaliklari soni 4953 ta, ularga biriktirilgan yer maydoni 729 ming ga, band bo'lgan aholi soni 145,7 ming kishi. Demak, o'rtacha bir fermer xo'jaligiga 147 ga yer va 29,4 kishidan ishchi to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, bu mintaqada fermer

³2011 йил баҳорининг нихоятда қурғоқчилик бўлиши бу рақамларга салбий таъсир кўрсатган бўлиши мумкин.

xo'jaliklarining yer maydonlari, ayniqsa, Farg'ona vodiysi va Xorazm viloyatiga qaraganda ancha katta. Bu ham bo'lsa viloyatning tabiiy sharoiti va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuviga bog'liq.

Fermer xo'jaliklarining asosiy ko'rsatkichlariga joylarning tabiiy sharoiti va xo'jalikning ixtisoslashuvi katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Boysun tumanida bir fermer 400 ga yerga ishlov beradi, Oltinsoyda esa 39,6 ga ni tashkil qiladi. Boysun tumani bog'dorchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan; tumanda bir fermer xo'jaligida atigi 6 kishi ishlaydi, Jarqo'rg'onda esa 38 kishi (2010 y.).

Alohida ta'kidlash lozimki, kelajakda respublika agroiqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda mevacchilik va uzumchilikka ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ular orasida turli xil sharbat va meva konservalari, vino mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarish mamlakatimiz valyuta fondiga katta miqdorda mablag' tushirishi mumkin. Bunday milliy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari Surxondaryo viloyati qishloq tumanlarida yetarli.

Sotsial geografiya. Mamlakatimiz mintaqaviy siyosatida ijtimoiy sohalar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, turli infratuzilma shaxobchalarini keng miqyosda rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Ayniqsa, bu masala aholi soni tez ko'payib borayotgan va respublika asosiy markazlaridan uzoqda joylashgan Surxondaryo viloyati uchun dolzarbdir.

Ijtimoiy sohalar orasida chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatish muhim o'ringa ega. Jumladan, 2010 yilda viloyatda chakana savdo aylanmasi aholi jon boshiga olinganda Termiz shahri hamda Denov va Qiziriq tumanlari oldinda, Bandixon, Termiz tumanlari orqada turadi. Termiz tumani aholisi o'zining bunday ehtiyojlarini asosan viloyat markazida qondirganligi sababli mazkur ko'rsatkichlar bu yerda past. Bandixon tumanidagi vaziyat esa yaxshilanishni talab qiladi. Turli xil pullik xizmatlar bo'yicha, Termiz shahrini hisobga olmaganda, Denov tumani keskin ajralib turadi, Oltinsoy, Qiziriq, Sherobod kabi qishloq tumanlarida esa vaziyat birmuncha salbiyroq (44-ilova).

Viloyatda markazlashgan suv manbalari bilan 81,3 foiz aholi ta'minlangan, tabiiy gaz ta'minoti esa 63,0 %. Binobarin, bu yerda aholini toza ichimlik suvi,

xususan, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi muammosi, ayniqsa, tog` va tog` oldi hududlar uchun o'ta dolzarb hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatida nozogeografik va nozoekologik vaziyat uncha sog'lom emas. Transchegaraviy havo va suv manbalarining ta'siri, mahalliy "Afg'on" shamoli, toza ichimlik suvining ba'zi joylarda tanqisligi turli xil kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Viloyatda jami 81 ta sog'liqni saqlash muassasalari mavjud, umumiy bemor o'rinlari 7614 ta yoki har 10000 kishiga 35,9 ta. Bu, albatta, yetarli emas. Shifokorlar soni har 10 ming kishiga 18,1 ta, o'rta tibbiyot xodimlari 98,8 ta. Qishloq vrachlik punktlari 243 ta yoki har bir qishloq tumaniga 18,7 tadan to'g'ri keladi (2011 y.).

Viloyatda jami 851 ta umumta'lim maktablari mavjud. Ularda 395 ming o'quvchilar ta'lim olishadi. Kasb-hunar kollejlari 115 ta, o'quvchilar soni 120 ming kishiga yaqin; akademik litseylar 5 ta, talabalar 4894 kishi. Termiz shahrida davlat universiteti joylashgan. Mazkur oliygoh kirish – test sinovlariga qatnashuvchilar soni bo'yicha O'zbekistonda oldingi o'rinlarda turadi. Shu bilan birga, viloyatda oliy o'quv yurtlarining boshqa yo'nalishlarini, jumladan, qishloq xo'jaligi, tibbiyot sohalarini tashkil qilish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Viloyatda rekreatsiya va turizm ham rivojlanib bormoqda. Omonxona, Xo'jaikon kabi sihatgohlar respublikamizda katta ahamiyatga ega. At-Termiziylar vatani, qadimgi arxeologik yodgorliklar asosiy turizm ob'ektlari sanaladi. Ta'kidlash joizki, bu obektlar xususan xorijiy sayyoxlar uchun katta qiziqish tug'diradi. Biroq bu borda turistik infratuzilmani yanada rivojlantirish talab etiladi.

1.5. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Maydoni katta, yer usti tuzilishi murakkab, geografik joylashgan o'rni uzoq bo'lgan Surxondaryo viloyatida transport infratuzilmasini rivojlantirish nihoyatda muhimdir. Xususan, bu yerda transport xavfsizligini, mamlakatimiz yagona temir yo'l transporti tizimini shakllantirish katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan 2007 yilda qurib ishga tushirilgan 223 km uzunlikdagi Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'lining ahamiyati beqiyosdir. Ushbu yo'l respublikamizning eng janubida joylashgan mintaqani yaqinlashtirdi, uni qo'shni Qashqadaryo viloyati bilan yanada jipslashtiradi va yagona iqtisodiy rayonni shakllantiradi. Ayni paytda u viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi, temir yo'l atrofidagi turli xil qazilma boyliklar, rekreatsiya va turistik imkoniyatlardan keng foydalanish imkoniyatlari tug'iladi, Surxondaryoning mamlakatimiz markazigacha bo'lgan masofasini taxminan 120-130 kmga qisqartiradi.

2010 yil yakunlariga qaraganda, viloyatda 47674 ming tonna turli xil yuklar, 440 mln. yo'lovchilar tashilgan. Bu ichki transport ko'rsatkichlari to'liq avtomobil transporti zimmasiga tushadi. Temir yo'l esa tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Bir vaqtlar faoliyat ko'rsatgan Amudaryoda tashkil etilgan suv transporti hozirgi kunda ishlamaydi, havo transporti esa viloyat aholisini respublikamizning boshqa hududlari va xorijiy mamlakatlar bilan aloqasida ahamiyatlidir.

Termiz shahrida yirik aeroport qurilgan. U xorijiy mamlakatlar, xususan, Afg'oniston bilan O'zbekiston aloqalarini amalga oshirishda xizmat qiladi⁴. Bu borada viloyat markazini qo'shni Afg'oniston Respublikasi bilan bog'lovchi, Amudaryoda qurilgan Hayraton ko'prigi va temir yo'li ham muhim ahamiyatga ega. Kelajakda shu asosda Termiz xalqaro miqyosdagi yirik transport tuguniga aylanishi va bu yerda ham katta terminallar, erkin iqtisodiy mintaqalar barpo etish

⁴Мазкур аэропортдан халқаро келишувга мувофиқ Германия мамлакати ҳам фойдаланади.

imkoniyatlari paydo bo'ladi. Jumladan, Mazori Sharif yo'nalishidagi temir yo'lining qurib bitirilishi viloyat markazining transport funksiyasini yanada kuchaytiradi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2010 yilda 298,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan; eksport 208,0, import 30,1 mln. dollar. Importning ozligi ko'p jihatdan mintaqada hozircha qulay investitsiya muhitining shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Eksport tarkibida paxta tolasi 66,0 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari 22,4 foizni tashkil qiladi. Importda mashina va uskunalar (39,5 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (37,3 %) asosiy mavqeni egallaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar ko'proq Uzoq xorij va Boltiq bo'yi davlatlari bilan olib boriladi, MDH davlatlariga esa tashqi savdo aylanmasining 21,8 foizi to'g'ri keladi. Viloyat tashqi iqtisodiy aloqalarida 2009 yilda Afg'oniston (22,3 %), Xitoy (17,0 %), Singapur (11,9 %), Koreya Respublikasi (11,7 %) mamlakatlari yetakchilik qilgan. Shuningdek, Pokiston, Rossiya davlatlarining ishtiroklari ham salmoqli darajada. Eng so'nggi yillarda Ozarbayjon, Koreya, Shvetsariya, Iroq mamlakatlari bilan aloqalar kuchaygan, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlar bilan esa kamaygan. Kelajakda Afg'oniston bozori, shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda Surxondaryo viloyati asosiy bo'g'in sifatida muhim o'ringa ega bo'ladi.

Viloyat tashqi iqtisodiy aloqalarining shakllanishida barcha qishloq tumanlari va shaharlari ham bir xil ishtirok etmaydi. Chunonchi, 2010 yilda jami eksport hajmining 16,7 foizi Termiz tumaniga, 11,9 foizi Sherobodga, 10,5 foizi Sariosiyo tumaniga to'g'ri kelgan holda, atigi 8,6 foizini Termiz shahri tashkil qilgan. Shu bilan birga, Bandixon ushbu iqtisodiy faoliyatda mutlaqo ishtirok etmagan, Boysun va Oltinsoy tumanlarida ham bu ko'rsatkich o'ta past darajada.

Surxondaryo viloyatida xorijiy sarmoyalar hisobiga 66 ta qo'shma korxona qurilgan, ularning 50 tasi ko'rilayotgan yilda faoliyat ko'rsatgan. Qo'shma korxonalar tomonidan 135,3 mlrd. so'mlik mahsulot va xizmatlar ko'rsatilgan, ular viloyat jami eksportining 22,0 foiz hajmini beradi.

**Surxondaryo viloyati qishloq tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining
asosiy indikatorlari**

(2012 y. aholi jon boshiga)

t/r	Shaharva tumanlar nomi	Sanoat mahsu- loti	Qishloq xo'jalik mahsu- loti	XIM	Inves titsiy a	Pudrati shlari	Chakan asavdo	Pullikx izmat
	Termiz sh.	2,225	0,014	1,946	1,276	2,977	3,112	5,178
	tumanlar:							
1	Angor	1,011	1,208	0,344	0,652	0,809	0,927	0,552
2	Bandixon	0,086	1,278	0,241	1,464	1,472	0,253	0,595
3	Boysun	0,372	0,922	0,812	3,527	1,678	0,923	0,622
4	Denov	0,935	0,941	1,972	0,420	0,651	1,602	1,341
5	Jarqo'rg'on	2,494	1,125	0,317	0,982	0,867	0,771	0,639
6	Muzrabot	1,128	1,163	0,586	0,643	0,655	0,694	0,603
7	Oltinsoy	0,135	1,017	0,209	0,842	0,704	0,647	0,387
8	Sariosiyo	0,720	0,749	0,499	2,196	1,647	0,608	0,692
9	Termiz	0,327	1,129	0,769	1,337	1,099	0,447	0,759
10	Uzun	0,463	1,252	0,387	0,531	0,854	0,681	0,901
11	Sherobod	1,292	1,115	0,985	0,592	0,799	0,626	0,462
12	Sho'rchi	1,525	0,815	2,994	0,469	0,473	0,896	0,582
13	Qiziriq	1,202	1,609	0,266	0,909	0,768	1,013	0,501
14	Qumqo'rg'on	0,708	1,169	0,334	0,870	0,591	0,617	0,518
	Viloyat bo'yicha	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Ichki tafovutlari. Surxondaryo viloyati aholisi va xo'jaligining hududiy tarkibi uning tabiiy geografik holatiga mos ravishda shakllangan. Mintaqada shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishida joylashgan viloyatning asosiy "iqtisodiy yo'lagi", yangi qurilgan temir yo'l zonasi esa o'ziga xos uning rivojlanish "o'qi" bo'lib xizmat qiladi. Transport geografik o'rni qulaylashib borayotgan Qumqo'rg'on, Sherobod va Boysun mintaqaning o'sish nuqta va markazlari hisoblanadi.

Viloyatda hozirgi vaqtda 2 ta ichki iqtisodiy rayonlar ajratiladi: Denov va Termiz; qishloq tumanlari, siyosiy va iqtisodiy geografik o'rin nuqtai nazaridan esa Markaziy (yangi temir yo'l zonasi), Janubiy, G'arbiy va Sharqiy rayonlar belgilanishi mumkin. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ma'lum darajada chegaradosh davlatlar – Afg'oniston, Turkmaniston va Tojikiston mamlakatlari bilan munosabatlariga bog'liq.

Tahlillar ko'rsatishicha, qishloq tumanlari asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi (2-jadval). Masalan, sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha Sherobod, Qiziriq, Muzrobot va Angor tumanlari oldingi o'rinlarni egallasa, Boysun, Oltinsoy kabi tumanlarning ko'rsatkichlari ancha past. Shuningdek, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish Denov va Sho'rchi tumanlarida nisbatan yuqori darajaga ega bo'lsa, uning pastroq ko'rsatkichlari Bandixon, Oltinsoy va Qiziriq tumanlarida, chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatishda esa Termiz shahri, Angor va Denov tumanlaridan tashqari barcha qishloq tumanlarining ko'rsatkichlari viloyat darajasidan orqada. Bu esa, o'z navbatida, mazkur sohalarda yechimini kutayotgan muammolar yetarlicha ekanligidan dalolat beradi. Kelajakda xususan Angor, Boysun, Bandixon, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Muzrobot, Oltinsoy, Termiz, Uzun va Sherobod kabi tumanlarda qulay investitsiya muhitini shakllantirish, mahalliy mineral xom ashyo va mehnat resurslaridan keng miqyosda foydalanish negizida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni faollashtirish talab etiladi.

II.BOB. SURXONDARYO IQTISODIY RAYONI MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI

2.1. Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusining maktab geografiyasi ta'limida tutgan o`rni.

Maktab geografiya ta'limida «Surxondaryo iqtisodiy rayoni» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga umumiy o`rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o`quv dasturiga muvofiq ikki soat ajratilgan. Bu mavzu O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini o`tganda « Surxondaryo iqtisodiy rayoni» haqida ma'lumot beriladi.

« Surxondaryo iqtisodiy rayoni» mavzusining maktab kursida ahamiyati katta. Bu mavzuni o`zlashtirishdan oldin o`quvchilar 8-sinf “O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursida iqtisodiy geografik rayonlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bosqichlari hamda tabiiy geografik xususiyatlari ya'ni geologik tuzilishi, rel`efi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosi va tabiatini muxofoza qilish mavzularini chuqur o`rganadilar. Keyin iqtisodiy rayonning aholisi va mehnat resurslari, sanoati va qishloq xo`jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo`ladilar. Bu bilim va ko`nikmalar «Surxondaryo iqtisodiy rayoni» haqidagi ma'lumotlar o`quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga olib keladi. Umumta'lim maktablarida dastlab O`zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy komponentlari va ularning o`zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari mavzulari o`rganiladi. O`quvchilar «Surxondaryo iqtisodiy rayoni» haqidagi ma'lumotlarga ega bo`ladilar. Surxondaryo viloyatlarining tabiiy geografik jixatidan joylashganligi va uning mamlakatda tutgan o`rni, salohiyati, hozirgi holat, rivojlanish bosqichlari kabi bilimlar hamda yangi mavzuni o`zlashtirish uchun o`quvchilar ko`nikma, ongida etarlicha tushuncha va yo`nalish hozirlangan bo`ladi.

« Surxondaryo iqtisodiy rayoni» mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o`rni va ahamiyati quyidagilardan iborat:

- O`quvchilarning « Surxondaryo iqtisodiy rayoni» haqidagi bilimlarni o`zlashtirish ularda bu mavzuga oid tushunchalarni kengayishiga olib keladi.

- « Surxondaryo iqtisodiy rayoni» mavzusi orqali o'quvchilar viloyatning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi hamda aholisi va mehnat resurslari kabi bilimlarga ega bo'ladilar.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach o'z istiqlol va taraqqiy yo'lini o'zi belgiladi. O'z iqtisodiyotini o'zi yuritish kabi yutuqlarini qo'lga kiritdi. Shundan so'ng darsliklar ham qayta ko'rib chiqildi. 8-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darsligi ham yangi dasturda qaytadan tuzilib chiqildi. Bunda birinchi qismda O'zbekiston iqtisodiyotiga umumiy ta'rif berilib, ikkinchi qismda O'zbekistonning 8 ta iqtisodiy rayonlari hamda bu iqtisodiy rayonlarni tashkil etuvchi viloyatlariga tavsif berilgan.

Men malakaviy bitiruv ishini shu sinfda o'qitiladigan Surxondaryo iqtisodiy rayoni va uni tashkil etuvchi viloyatni o'qitish metodikasiga baqishladim, har bir iqtisodiy rayonni o'quvchilarga o'qitish, o'rgatish qanchalik muhim bo'lsa, bu mavzuni o'rganish ham shunchalik katta aqamiyatga ega. Mavzuning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan o'quvchilarda mamlakat, uning alohida viloyati uning sarxamlari tabiiy boyliklari, aholisi, xo'jaligi va yirik shaharlari haqidagi tushunchalarin ixtisoslashish tarmoqlarini shakllantiradi;

Ikkinchidan Surxondaryo iqtisodiy rayonning boshqa iqtisodiy rayonlar orasida tutgan o'rni, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli haqida o'quvchilarga ma'lumot berilib, ularning bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Uchinchidan o'quvchilarga yozuvsiz karta bilan ishlashni, atlasdan ko'chirishni o'rgatish, ularning rassomchilik faoliyatlarini shakllantirish va hozirgi kunda iqtisodiy rayon haqidagi bilimlarini ma'lum bir tizimga solishdan iborat.

To'rtinchidan darsni tashkil etishda muhim nuqtalar, xususan qanday geografik nomlar, yangi terminlar o'rganilishini aniqlab olish aloqida ahamiyatga ega.

Beshinchidan oldin o'rganilgan iqtisodiy rayon haqidagi bilimlardan qaysilari qaytariladi, qaysilariga suyanib bilim beriladi, boshqa fanlardan berilgan

tushunchalardan qaysilari esaga olinadi, ya'ni fanlararo aloqaga ham e'tibor berishiga ham boqliq. Darsda bu mavzuning o'qitish ahamiyati o'quvchi o'z fanining bilimdoni va o'z ustida tinmay ishlashi ilgor tajribalari bilan bevosita boqliq.

2.2. Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusini o'qitishning maqsadi, vazifalari va ta'lim- tarbiyaviy ahamiyati.

Har qanday darsning o'z maqsadi bo'lib, o'qituvchi darsga kirishdan oldin bajaradigan ishlarni rejalashtirib olishi, o'z konspektiga maqsad qo'yishi dars davomida esa o'sha maqsadni amalga oshirish bundan chetga chiqmaslik kerak. Darsning maqsadi uning mazmuni asosida belgilanadi. Maqsad va mazmun o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud. Biz Surxondaryo iqtisodiy rayonini o'quvchilarga tushuntirayotganimizda, maqsadimizni chuqur anglagan holda yondashishimiz kerak.

Umuman dars maqsadi 5 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi. Surxondaryo iqtisodiy rayonini o'qituvchilar o'quvchilarga o'rgatayotganda ham mana shu maqsadlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishlari kerak.

A. Ta'limiy maqsadi: Darsning ta'limiy maqsadi o'quvchilarga nazariy bilim berish bo'lib, ishning mohiyatini, mazmunini yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Surxondaryo iqtisodiy rayonini o'qitishda iqtisodiy rayonining iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari, aholisi, rayonining qishloq xo'jaligi, sanoati yirik korxonalari hamda yirik shaharlari haqida batafsil fikr yuritish darsning ta'limiy maqsadini tashkil etadi.

« Surxondaryo » iqtisodiy rayonini mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilarda quyidagi bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi.

Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik o'rnining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi;

O'zbekiston Respublikasi siyosiy kartasida viloyat maydonining XX asr davomida bir necha marotaba hamda so'ngi yillarda katta o'zgarishlarni boshidan kechirganligi;

Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarining o'ziga xosligini;

Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti va tabiiy resurlari o'rtasidagi tafovutlarni;

Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari joylashuvi ya'ni ko'mir havzalarini, neft gaz havzalarini, marmar havzalarini.

Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirishning qulayligini.

Surxondaryo viloyatining aholisi, uning ko'payishi, migratsiyasi, milliy – tarkibi, urbanizatsiya darajasi kabi bilimlarni.

Surxondaryo viloyatining xo'jaligi, uning viloyatlar orasidagi o'zni, va farqlari.

Surxondaryo viloyatining sanoati va uning yetakchi tarmoqlari haqidagi bilim va ko'nikmalarni egallashga imkon beradi.

B.Tarbiyaviy maqsadi: Buyuk pedagogik olim mumtoz shoirimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqrid qilinib kelgan, muammolarning diqqatlariga suyangen muqaddas bir vazifadur”.

Shunday ekan, mohir o'qituvchi, murabbiyning vazifasi o'quvchiga dars jarayonida faqat nazariy ilmiy masalalarni o'rgatishdan iboratgina bo'lib qolmay, balki u bolaning dunyoqarashi, didi va salohiyatini ham shakllantirish, har bir insonni erkin fikrlaydi degan etuk shaxs bo'lib tarbiyalashiga xizmat qilishi lozim.

Har bir etuk ma'rifatli murabbiy darsni ma'naviy va axloqiy, pok iymonli, insofli diyonatli, or-nomusli va mehr oqibatli shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qilishiga erishish lozim.

« Surxondaryo » iqtisodiy rayoni mavzusining tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga qaratilgan.

« Surxondaryo » iqtisodiy rayoni mavzusini o'rgnash, bu yerdagi rayon va shaxarlarning geografik o'zni, tabiiy sharoiti, siyosiy kartasi, tabiiy resurslari, qazilma boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, sanoat, qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi bilimlarni egallash, ular haqidagi

ko'nikmalarga ega bo'lish kabi tushunchalar o'quvchilarning bilimini va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi.

Jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti bilan o'zaro chambarchas munosabatda bog'langanligi, unga kelajak avlodni ham moddiy ta'minlovchi manba nuqtai nazar bilan bog'lovchi yuksak ma'rifatli va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Zero olimlarmiz ta'kidlaganidek "Insonni inson qilib etishtiruvchi narsa bu tarbiyadur"

Surxondaryo iqtisodiy rayonini o'qitishning yana bir tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarni aqliy, estetik, ekologik, vatanparvarlik kabi tarbiyaga yo'naltiriladi.

V) Rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilar « Surxondaryo iqtisodiy rayoni» mavzusini o'zlashtirishlari bilan ular ongida quyidagi bilim va tushunchalar o'z o'rnini topadi.

Surxondaryo viloyatining geografik o'rni uning ikki asosiy xususiyati bilan belgilanadi. Birinchidan bu viloyatning mamlakatning eng janubida, Avg'onistonga yaqin qo'shni ekanligi o'ziga xos xususiyatdir.

Surxondaryo viloyatining geografik o'rni hududining uncha katta emasligi, transportning yaxshi yo'lga qo'yilganligi tufayli bu viloyatlar yo bevosita chegaralanadi, yoki kichik masofagina ularni o'zaro ajratib turadi. Buning ustiga bu chegaralar ko'proq shunday joylardan o'tadiki, ular transport aloqalari uchun uncha to'siq bo'la olmaydi.

Surxondaryo viloyatining geografik o'rni qo'shni Qashqadaryo viloyatiga yondosh joylashgan bo'lib, shaharlarning ko'pi eng gavjum avtomobil va temir yo'llar yaqinidadir.

- Surxondaryo viloyatining tabiiy geografik xususiyatlaridan foydali qazilmalarni o'rganish lozim.

- Surxondaryo viloyatining tabiiy resurslari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning dunyoqarashini oshirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish, erkin fikrlashni yuzaga keltirish, test bilan ishlash malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilardagi bilim, o'quv malakalarini rivojlantirish, o'quvchidagi aqliy, jismoniy xarakterini rivojlantirib, takomillashtirib boradi.

Surxondaryo iqtisodiy rayoni o'rgatilayotganda o'qituvchi bu iqtisodiy rayondan avval o'rganilgan iqtisodiy rayonlarining muammoli vaziyatlarini yuzaga keltirib, jumboqlarni echa olishga ko'maklashishi va bu mazmundagi fikrlarni Surxondaryo iqtisodiy rayonga tadbiq etish mumkin. Shuningdek, o'quvchilarga tarqatma test savollari, testlar berib, ularning bilimlarini shakllantirish mumkin. Masalan quyidagicha testlar tuzish mumkin.

Surxondaryo viloyati maydoni bo'yicha viloyatlar orasida nechanchi o'rinda turadi:

A) birinchi

V) uchinchi

S) beshinchi. Haqiqiy javob S.

G) Shuningdek, darsning o'quvchilarni ma'lum bir kasbga yo'naltirish maqsadi ham aniqlab olinishi kerak.

Kelajakda har bir o'quvchi ma'lum bir kasbni egalashi uchun unda kasblar haqida etarlicha tasavvur bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchi o'z oldiga biror bir kasbni egallashni maqsad qilib qo'yadi.

Surxondaryo viloyatida sanoatning rangli metallurgiya, neft-kimyo, yoqilqi energetika kabi, qishloq xo'jaligining chorvachilik, paxtachilik tarmoqlari taraqqiy etgan bo'lib, bu sohalarda mutaxassislar haligacha tanqis bo'lib kelyapti. Istiqbolli sohalarga o'quvchilarni qiziqtirish-o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir.

D) Eng so'nggi maqsad o'quvchilar ongiga milliy istiqlool g'oyasini singdirish va ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

G. Milliy istiqlool qoyasini singdirish: Milliy istiqlool g'oyasini singdirish borasidagi birinchi navbatda qilinadigan ishlar yosh avlodni vatanparvarlik, el yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va insoniylik fazilatlarini payvand qilishdan iboratdir.

Har bir o'quvchi "Surxondaryo" iqtisodiy rayoni mavzusini o'rganishda o'sha davrda yashab ijod qilgan olimlar, sayohatchilarning qilgan qaxramonliklarini, qilgan tadqiq ishlari alohida e'tiborga olinib o'rganish alohida kasb etadi. Viloyatining geografik o'rni, chegaralari, foydali qazilmalari, tabiiy sharoiti va resurslarining xilma xilligi, ularning iqtisodiy rivojlanishi bosqichlarini kelajak avlodga targ'ibot qilish, tushuntirish va o'rgatishni maqsad qilib qo'yish lozim.

"Surxondaryo" iqtisodiy rayoni mavzusini o'rganishda har bir o'quvchi o'z oldiga tabiiy resurslarni qadrlash va uni asrab avaylab foydalanish, kelajak avlodning o'zi bilishi, tushunishi, qadrlashi hamda undan samarali foydalanish kabi tushunchalarni chuqur his qilmoqi lozim.

O'quvchilarga mustaqillikka hurmat, mustamlakachilikka nafrat tuyqusini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri.

Ta'lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan yana biri jamiyatdagi barcha toifa kishilarni, xususan O'zbekiston aholisining qariyb 70 foizinin tashkil qiluvchi yoshlarni va ona Vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashdir. Bu o'z navbatida zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Har bir mavzu o'qitilishda o'qituvchining pedagogik mahorati birinchi o'rinni egallaydi. O'qituvchi dars maqsadidan kelib chiqqan holda darsni yangi texnologiya asosida o'tkazsa ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dars maqsadiga erishishda o'qituvchi o'qitish metodlarini juda mukammal bilishi katta o'rin egalaydi.

Har bir o'qituvchi yoki biz bo'lajak o'qituvchilar ham har bir darsga kirishdan avval, o'z maqsadimiz va vazifalarimizni chuqur anglagan holda tayyorgarlik ko'rishimiz lozim. Shundagina biz o'qituvchilarni darsimizga qiziqtirib, o'zimizning jamiyatga kerakli inson pedagog bo'lib etishimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

"Surxondaryo" iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitishda noan'anaviy dars usulini qo'llash maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani

taraqqiyoti bilan bog`liq holda rivojlanib bormoqda. Geografiya fanini o`qitishning turli usullari va shakllari qaror topmoqda.

Bunda butun jahonda tajribadan o`tgan turli xil yo`nalishlar bo`yicha qo`llaniladigan uslublar bizning umumta'lim maktablarida sinovdan o`tmoqda.

Hozirgi kun davr talabiga mos ravishda noan'anaviy dars uslublarini qo`llash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon darslari bir necha o`nlab xususiyatlarga ega.

Bunda avvalambor o`quvchi shaxsini shakllantirishga, unda geografik madaniyatni rivojlantirishga e'tibor berish lozim. O`qituvchi o`quvchi bilimlarini faoliyati tashkil etishda asosiy tashkilotchi va maslahatchi bo`lishi kerak. O`quv vazifalari muntazam kuzatilib borilishi, o`quv jarayoni paytida o`quvchilar o`rtasida o`zaro muloqatlar, o`zaro aloqa, suhbat va tortishuvlar bo`lishi lozim. Darsda bevosita o`z hududimizni mamlakat miqyosida va boshqa davlatlarga nisbatan taqqoslash muxim o`rin tutadi.

O`quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy darslarda, dars-seminar, dars-sinov, dars-o`yin, dars-konferentsiya, muammoli vaziyat, "mehmon chaqirish", "aqliy hujum", "rol o`yini", "qor uyumi", press konferentsiya kabi noan'anaviy dars uslublari qo`llanilmoqda. Quyida ushbu uslublardan foydalangan holda 8-sinflarda "Surxondaryo" iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish yo`l-yo`riqlari bilan tanishib chiqamiz.

Hozirgi kunda ta'limni tashkil qilishning eng keng qo`llanilayotgan shakllaridan biri – seminar darsidir. Uning asosiy vazifasi o`quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini hamda mustaqillik xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Aholi tarkibini o`rganishda o`quvchilarni bir necha guruhlariga bo`lib, ularning bir qismiga viloyatining iqtisodiy geografik xususiyatlarining tumanlar bo`yicha uyga vazifa qilib beriladi. Masalan: Denov tumanining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, Boysun tumaniining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari va hokazolar.

O`quvchilarga o`qituvchi qanday adabiyotlar, jurnallar va gazetalardan ma'lumotlar olish mumkinligini tushuntiradi. Seminar mashg`ulotiga o`qituvchining o`zi ham puxta tayyorgarlik ko`radi. Chunki har bir o`quvchi

mavzu doirasida to'plangan ma'lumotlarni o'qituvchi to'ldirib borishi lozim. Shu bilan birga har bir o'quvchi o'z ma'ruzasini xulosalashga o'rganish lozim.

O'quvchilar bilimi o'zlari bajargan ma'ruzalarining mazmuni va mohiyati rejasi va xulosasining mukammalligi va o'quvchi nutqi ravonligiga qarab o'qituvchi tomonidan baholanadi. Seminar darslari ko'p ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida ko'p hajmli ma'lumot olish imkoniyati tug'iladi va o'quvchilarda turli bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Zamonaviy dars metodlarining ayrimlari bilimlarni mukammalligiga, ayrimlari mustaqil fikr yuritish va izlanishga, ayrimlari esa maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini charxlashga va xulosalar qilishga o'rgatuvchi metodlardan "aqliy hujum", "muammoli vaziyat" metodlari ham bor. Bunda butun bir sinfga mavzuga doir biror savol tashlanadi. Masalan, mavzumizga doir "Surxondaryo" iqtisodiy rayoni qanday tabiiy-iqtisodiy omillar asosida rivojlanmoqda. O'quvchilar bu savolga birin – ketin ayta boshlaydilar: tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari, ishchi o'rinlarining ko'pligi, texnologiyalarining zamonaviyligi va hokozolar. O'qituvchi bu javoblarni doskaga yozib boradi va o'quvchilarga tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ayting deb bergan savoliga o'quvchilar har bir javob bo'yicha qo'l ko'tarib tasdiqlaydilar. Bu savolga o'qituvchi o'z fikrini aytadi va aniq to'qri javobni belgilaydi. Yana shu mavzu bo'yicha o'rta viloyatning tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari ko'proq rivojlangan degan savol tashlanadi. O'quvchilar unga sanoat va qishloq xo'jaligi hamda transport va boshqalar deb javob beradilar.

O'qituvchi: viloyatning tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari qadimdan va hozirgi kunda ham rivojlangan tarmoqlarini belgilang degan savoliga o'quvchilar javoblari ichida eng ko'p to'qimachilik, neft-gaz, qishloq xo'jaligi, chorvachilik mavjud tarmoqni belgilaydilar.

Ushbu muammoli savollar o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Savollar mazmuni jihatdan teran bo'lishi lozim va o'quvchi uning javobini izlashga xulosalar chiqarishga harakat qilmog'i lozim.

Darsda o'quvchilarning puxta bilim egallashlari, ko'proq ma'lumot to'plashlari uchun "qor uyumi" uslubidan foydalanish ham qo'l keladi. Bunda o'qituvchi mavzuga doir savol beradi. Bu savolga har bir o'quvchi o'z bilimiga tayangan holda javob berishga harakat qiladi. Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi qaysi yirik tumanlarga to'qri keladi, yoki viloyatning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi kelajakda qanday geografik oqibatlarni keltirib chiqaradi, yoki viloyatning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishida hozirgi kunda qanday muammolar mavjud, viloyatning tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini rivojlanish darajasiga siz qanday yo'l- yo'riq ko'rsatgan bo'lar edingiz kabi savollar ushbu uslubda qo'llanishi mumkin.

Ba'zi bir dars turlarida o'quvchilarning to'liq qatnashishi imkoni bo'lmaydi. Lekin "qor uyumi" uslubidan foydalanganda har bir o'quvchi o'z fikr mulohazalarini bildiradi.

Shuning uchun darsni qunt bilan tinglashga va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Darsning mustahkamlash qismida savol javoblar bilan birga qatorlar o'rtasida musobaqalar, geografik o'yinlar, krossvordlarni echish kabi o'quvchilarning faolligini oshiruvchi uslublardan foydalanish qo'l keladi. Masalan, har bir qatordan bir vakil o'quvchi doskaga chiqarilib, bu uchta o'quvchiga viloyatning Denov tumanini, Boysun tumanini, Sariosiyo tumanini, Angor tumanini yozing deb savol berish mumkin.

O'quvchining qaysi biri ma'lum bir vaqt ichida ko'proq javob yozsa, ushbu o'quvchi yutib chiqqanligini aytib berish lozim. Bu narsa nafaqat darsga qiziqishining ortib borishiga balki, o'quvchining kartalar bilan ham muttasil ishlab borishiga sabab bo'ladi.

2.3. Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o'qtishda qo'llanadigan metodlar

“Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga” muvofiq 8- sinflarda “O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursida Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusiga ikki soat ajratilgan bo'lib, o'quvchilar shu dars mobaynida Surxondaryo iqtisodiy rayoniga doir bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Dars jarayonida geografiya ta'limida qo'llaniladigan turli metodlar: hikoya, suhbat, tushuntirish, kartografik qo'llanmalar va raqamli qo'llanmalar bilan ishlash darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash metodlaridan foydalanib o'qituvchi darsni tashkil etsa, darsning unumdorligi ortadi.

Hozirgi sharoitda ta'lim metodlari samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Ta'limning turli metodlaridan samarali foydalanish, darsda o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishini va muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu sababli ta'lim metodlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

Har bir darsda o'qituvchi faqat bitta metoddan foydalanib dars o'tmaydi. Aksariyat hollarda geografiya o'qituvchilari ta'limning og'zaki bayon metodlarini kartalar, diagrammalar va karta chizmalari bilan uyg'unlashgan holda darsni tashkil etadilar.

Har bir dars bilan tizimlar va ko'nikmalardan biron yangilik bersin, yangi mavzu doirasida tushunchalar hosil qilinishi va so'nggi o'rganiladigan mavzular uchun tayanch xizmat qilishi zarur. Har bir darsda o'qituvchi mavzuning mazmuni va mohiyatiga qarab o'qitish metodlarini tanlaydi, shuning uchun bu darslar o'qituvchining mustaqil ijodiy asari bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi darsini boshlashdan oldin mavzuni e'lon qiladi va doskaga yozadi. Bizning misolimizda bu Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusi bo'lib, mavzuga doir reja yoziladi. Mavzuni o'tishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bayon etiladi. Dars jarayonida o'qituvchi shu maqsadlarga erishishga

harakat qiladi. Endi o'qituvchi mavzuni o'qitishda lozim bo'lgan metodlar bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

Hikoya - o'quv materiallarini bayon qilish shakli bo'lib, asosan tasvirlash xarakteriga ega. Bu uslubning ijobiy tomoni o'qituvchi o'quvchilar bilan ko'proq munosabatda bo'ladi. Surxondaryo viloyati va undagi tumanlarining tashkil topishi, tarixi, geografik o'rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, tumanlardagi iqtisodiy xususiyatlarini tushuntirishda hikoya metodi qo'l keladi.

Hikoya davomida iqtisodiy ko'rsatgichlardan foydalanilsa hikoya qiziqarli chiqadi. Hikoyada darsning turli bosqichlarida va darsga xotima yasaydi. O'qituvchi hikoyani o'quvchinig yoshiga moslab tanlaydi. 8-sinflarda hikoya juda soddalashib ketmasligi unda tushunchalar masalan, Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, ishlab chiqarish maxsulotlari, rivojlanish darajasi bir-biriga nisbatan foiz va hokazo tushunchalar va atamalar albatta aks etishi lozim.

Hikoya davomida o'qituvchi nazorat savollarini berib borishi, masalan tumanlar orasida eng rivojlanganlaridan qaysilari viloyat hududida joylashgan, ularning joylashgan hududlari, nomlari, qachon tashkil topgan, asosan viloyatda nimalar ishlab chiqariladi va eksport qilinadi kabi savollarni berib borish mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Tushuntirish - o'qituvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarning mohiyatini ochib berishda keng qo'llaniladi. Bu metod geografiya ta'limida bilimlarni izchil o'rganish imkonini beradi. Viloyat tumanlarida aholining tabiiy ko'payishi, tug'ilishi va o'lim ko'rsatgichlari, ularning sabablari, emigratsiya immigratsiya tushunchalari va ularning aholi soni, ko'payishiga ta'siri, aholining shaharda to'planishi, urbanizatsiya, aglomeratsiya tushunchalarini izohlashda tushuntirish metodidan samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari viloyatning tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini tumanlar bo'yicha tahlil qilib izohlashda tushuntirish metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni voqea va hodisalardan xabardor qiladi, ular o'rtasidagi aloqalarni

ochib beradi, xulosalar chiqaradi va yakunlaydi. O'qituvchi bunda qisqacha muammoli savollar berishi mumkin. Masalan: viloyatning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarining boshqa viloyatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlariga nisbatan farqlanishini, uning sabablari haqidagi bilimlarni aniq faktlar asosida berishi lozim.

Tushuntirish bilan birga kartalar, diagrammalar, karta sxemalardan foydalanish ham ijobiy natijalar berib, bu o'quvchilar xotirasi va mavzuning chuqur o'rganishga sabab bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchining ikki tomonlama aloqasi tushuntirishga takomillashtirishga yordam beradi. Tushuntirish sodda, aniq, ravon bo'lishi lozim.

Maktab geografiya ta'limida alohida ahamiyat kasb etadigan suhbat metodida esa o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rin tutadi. Bu metodning bosh talabi mukammal o'ylangan savollar va o'quvchilar qaytarishi mumkin bo'lgan javoblarning puxta tuzilishidir. Bunda savol aniq bo'lishi, ya'ni o'quvchilar suhbat nima ustida borayotganini hamisha tushunishlari shart. Mavzu e'lon qilingandan so'ng savollar o'rta tashlanadi. Suhbat mantiqiy qismlarga bo'linadi, o'qituvchi o'quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarini tuzutadi va to'ldiradi. Shundan so'ng o'quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusi o'tilishi jarayonida mazmunan quyidagi turlarga bo'lib, savollarni tashkil etish mumkin.

Aniq va to'liq ma'lumotlarni o'zlashtirishga oid savollar. Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini tahlil qiling. Viloyat tumanlarining nomini amaliy ishlar daftariga yozing. Qaysi tumanlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan, rivojlangan tumanlarning nomini birma-bir izohlang va nomini yozing. Qaysi tumanlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan va nechanchi o'rinda turadi. Surxondaryo viloyatining necha foiz aholisi mehnatga yaroqli va qaysi sohalarida ishlaydi. Viloyatning necha foiz aholisi yoshlarni tashkil etadi.

Kartani bilish va o'qib olishga oid savollar. Masalan: viloyat tumanlarining aholisi zichligini aniqlang. Kartadagi punsonlarning katta kichikligiga qarab, viloyat tumanlarining aholi soniga ko'ra eng yirik, katta, o'rta va kichik

qishloqlarni aniqlang va hokazo. Sabab aloqadorlik qonuniyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan tarzda savol javoblar. Bunday savol javoblar o'quvchining fikrlash qobiliyatini charxlaydi, ularda mustaqil fikrlash, fanga qiziqish va ilm to'plashga intilish tuyg'ularini rivojlantiradi.

Noto'g'ri berilgan javoblar o'qituvchi tomonidan to'g'rilanib borilishi va aniq berilgan javoblar o'z navbatida qo'shimchalar kiritilib, to'ldirilib borishi lozim. Bunda savollar shunday qo'yilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni ifodalashi va shu fikrni davom ettirishi kerak..

Geografiya ta'limida ma'ruza qilish darslari yirik mavzular o'qilayotganda va nazariy bilimlar ko'proq mujassamlangan mavzular qo'llaniladi. Mavzuni sinov seminar tizimi bilan qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir. Maktabda ma'ruza quyidagi dedaktik talablarga javob berishi kerak. Ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko'p jihatdan oydinlashtirish lozim. Ma'ruza albatta ko'rgazmali bo'lishi kerak. Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va hodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha metodlarni kartalar, tasvirli qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va karta sxemalardan foydalangan holda dars jarayoni o'tiladi. Masalan geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'rta maktablar uchun 7-8-sinf atlaslari nashrdan chiqarilgan va biz o'tadigan mavzuga doir bu atlasda Surxondaryo viloyati va tumanlarning tabiiy sharoiti, geografik o'rni, tabiiy komponentlari aholi zichligi, milliy tarkibi, mehnat resurslari kabi kartalari mavjud. Bundan tashqari O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini xarakterlovchi kartalar mavjud.

Kartada biz bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmagan voqea hodisalar ham tasvirlangan bo'ladi. U nafaqat ko'rgazmali qurolgina bo'lib qolmay, o'rganish ob'ekti, bilim manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Karta yordamida egallagan bilimlar o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi. Ularning aqliy

faoliyatini rivojlantiradi. Ularda kuzatuvchanlik, tasavvur, mantiqiy fikrlash kabi xizmatlarni tarbiyalaydi.

Har bir darsda o'qituvchi yangi bilimlar tushunchalar, ko'nikmalar hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lib, unga erishishi uchun o'z bilimlarni mutassil ortirib borishi kerak.

Eski avval o'rganilgan ma'lumotlarni qayta berish o'quvchilarning o'qituvchiga bo'lgan hurmatini so'ndirib boradi. Geografiyada har bir mavzuni o'qitishda maxsus metodlardan foydalaniladi. Geografiya ta'limining umumiy metodiga oqzaki bayon, kartografik qo'llanmalar bilan ishlash, kuzatish va birlamchi metodlarni kiritish mumkin.

Biz Surxondaryo iqtisodiy rayoni tegishli mavzularni o'qituvchilarga tushuntirayotganimizda kartografik metoddan samarali foydalanishga harakat qilishimiz lozim. Chunki geografiya fanining muqaddadimasi ham xotimasi ham, uning kartasi bilan boqliq. Bu iqtisodiy rivojlanish o'rganilayotganda lozim bo'ladigan harakatlar.

O'zbekiston iqtisodiy kartasi, Surxondaryo viloyati iqtisodiy kartasi yoki karta-sxemasi, O'zbekiston tabiiy kartasi, albatta bo'lishi shart, bunda o'rganilayotgan hudud aholisi, xo'jaligi va yirik shaqarlari xarita asosida tahlil etiladi.

Ayni paytda geografik taqqoslash metodlari katta ahamiyatga ega. Taqqoslash yordamida o'tmish va hozirgi kundagi zamon va makonni o'zga xususiyatlari ochib beriladi. Geografiyada bir joy ikkinchi joydan farq qilmasa, ular orasida hududiy tafovutlar ko'rinmasa har bir joyning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanmasa u holda geografiyaga o'rin yo'qdir. Georafik taqqoslash o'xshash va noo'xshash ko'rinishda bo'ladi. Taqqoslash avvalo ob'ektlarning iqtisodiy geografik o'rnidan boshlanishi lozim chunki hududi ana shu joylashish o'rni tahliliga xizmat qiladi.

Kuzatish metodiga ob'ekt yoki hodisani bevosita kuzatish kiradi. Rasmlar, diapozitivlar, ekskursiya va tajribalar kuzatish metodining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. O'qituvchi iqtisodiy rayonining rivojlanish xususiyatlarini o'qitishda

foydalanishi an'anaviy ahyamiyatga ega. Chunki geografiyani asosan bevosita ko'rinish kuzatish jonli mushohada yuritish orqali o'rganish samarali natija beradi. Iqtisodiy geografiyada asosan aholi mehnat resurslari xo'jalik va shaharlar transport yo'llari o'rganiladi. Biz rasmlar yoki videokasetalar orqali o'quvchilarga bular haqida tasavvur etish imkonini berishimiz mumkin. Lekin ularni yaqin oradagi shahar yoki qishloqlarga transport yo'llariga zavod-fabrikalarga etish bundan ham yaxshi samara beradi. Masalan biz Surxondaryo viloyatida yashayapmiz, shu viloyatni o'quvchilarga tushuntirayotganimizda ularni yaqin oradagi shaharlariga sayr qildirish ularda o'rnashgan zavodlar-GRES, paxta tozalash zavodiga yoki shaharliklarni qishloq xo'jaligiga asoslangan xo'jaliklarga ekskursiyaga olib chiqish ulardagi tasavvurlarning to'laroq bo'lishiga imkon beradi.

Darslik bilan ishlash metodiga izohli o'qish, mavzu rejasi tuzish, darslik matnini mustaqil o'qish, darsliklarga berilgan karta-sxema, diagrammalar, rasmlar bilan ishlash, vaqtli matbuot yangiliklarini o'qish, badiiy adabiyotlardan mavzuga oid parchalar o'qish kiradi. Ayniqsa buyuk olimlar, akademiklar va Prezident asarlaridan mavzuga oid parchalar o'qish kiradi.

Surxondaryo iqtisodiy rayonining rivojlanish xususiyatlarini o'qitishda dars davomida darslik bilan ishlashga alohida e'tibor beriladi. Zarur o'rinlarni geografiya daftarlariga yozdirib boradilar.

Darslikdan foydalanib matnni (mavzuni) ayrim qisimlarini o'qitadilar, shu o'qilgan qismiga savol tuzdirib berishini talab etadilar. Ayrim hollarda darslik mavzusini o'qitib unga reja tuzdiriladi. Darslikdagi savol, topshiriqlarga javob topish, jadvallar bilan to'ldirish va ishlash, rasmlarning mazmunini so'zlab berish, darslik oxirida berilgan ilovalardan foydalanish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ishlar o'quvchilarni dars davomidagi faoligini oshirishga yordam bermoqda. O'qituvchi geografiya oid boshqa adabiyotlardan foydalanib borishi kerak.

O'qituvchi metodlardan foydalanishi uchun hamma metodlarni aniq bilishi va tanlab olishi talab etiladi. Har qanday metoddan foydalanishidan qa'tiy nazar

o'qituvchining maqsadi mavzuni o'quvchiga etkazish hisoblanadi. Ta'lim metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarning o'qituvchiga bo'lgan hurmatini oshiradi.

Taqqoslash, darslik bilan ishlash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish va og'zaki metodlardan foydalanib dars o'tishi samarali natija beradi.

DARSNING TEXNOLOGIK KARTASI

Fan:	O'zbekiston iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi
Mavzu:	Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoni.
Kalit soʻzlar	Geografik oʻrni, maydoni, aholisi, xoʻjaligi, sanoati, shaharlari, transporti .
Mavzuning qisqacha taʼrifi	
O'zbekistonning Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoni o'z tarkibiga Surxondaryo viloyatini oladi. Uning maydoni 20,4 ming km. kv. yoki respublika hududining 4 foiz maydonini egallaydi. U bu jihatdan O'zbekiston Respublikasining oʻrtacha kattalikdagi iqtisodiy geografik rayoni hisoblanadi.	
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	
Metod: Amaliy: aqliy hujum	
Shakl : Nazariy , amaliy guruhlarda ishlash .	
Vositalar: mavzuga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, xarita, darslik	
Nazorat: Oʻquvchilar davomati va darsga tayyorgarligini nazorat qilish	
Baholash: 5 ballik reyting asosida	
Darsning maqsad va vazifalari	
Ilmiy maqsad: mavzuga oid bilimlarini shakllantirish	
Tarbiyaviy maqsad: Bilimli, sog'lom, barkamol insonni voyaga yetkazish. O'z yurtiga sadoqatli, mard va fidoyi, komil insonlarni tarbiyalash, yaxshi va yomonning farqiga borishga, hayotda to'g'ri yo'l tanlash, xalqimiz va Vatanimizga halol xizmat qilish, bunyodkor g'oyalarning hayotbaxsh kuchini to'g'ri anglab, vayronkor g'oyalarga vaqtida zarba berishga o'rgatish . Guruh bilan “ bir yoqadan bosh chiqarib” ishlashga, “ hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun”, “ birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar “ maqolining hayotdagi isbotini ko'rsatish bilan o'quvchilarni birlashib, maslahatlashib, bir-birini fikrini hurmat qilishga o'rgatish.	
Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoniga oid bilim, ko'nikma va malakalarini, bilimlarini yanada mustahkamlash, rivojlantirish;	

Kutilayotgan natijalar			
Dars yakunida bilib oladi (bilim): Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoni haqidagi umumiy malumotlarni			
Dars yakunida tushunadi (ko'nikma): Ushbu iqtisodiy geografik rayonning maydoni, aholisi, xo'jaligi sanoati va shaharlarini tushinib oladi.			
Dars jarayoni va uning bosqichlari			
Ishning nomi	Bajariladigan ishlar mazmuni.	Metodi	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	a) salomlashish- b)yo'qlama-1daqqa (navbatchi axboroti tinglanadi); s) guruhlariga ajratish-2 daqiqa		4 daqiqa
2-bosqich o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum metodi asosida o'tilgan mavzuni takrorlash .	Aqliy hujum	4 daqiqa
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Slayd yordamida o'qituvchining kichik ma'ruzasi	Slayd taqdimoti .	5 daqiqa.
4-bosqich . Mustahkamlash	Guruhlar 1-topshiriqni bajarishadi: Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoni haqida umumiy malumot berish Xotira mashqi:.Guruhlar 2-topshiriqni bajarishadi Surxondaryo iqtisodiy geografik rayonining aholisi va xo'jaligi haqida kim ko'p malumot birish Guruhlar 3-topshiriqni bajarishadi: Yopiq testlarga kim ko'p to'g'ri javob topish; Guruhlar 4-topshiriqni bajarishadi. Ushbu iqtisodiy geografik rayonning sanoati shaharlari haqida malumot birish 5-topshiriq: Mavzuga oid savol va	Klaster usulida Og'zaki Yopiq testlar "Debat" usulidan foydalanishib	28 daqiqa

	topshiriqlarga javob topish		
5- bosqich. Baholas h. Darsni xulosalash	Guruhlarda bajarilgan ishlar bo'yicha to'plangan rag'bat yoki jarima, guruh sardorlari yordamida aniqlanadi va darsga yaxshi qatnashgan o'quvchilar baholanadi.	Rag'bat va jarima orqali.	3 daqiqa.
6- bosqich. Uyga vazifa.	Mavzuni yana bir bor o'qib, krossvord tuzish		1 daqiqa.

XULOSA

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, maktab geografiya ta'limida o`tiladigan barcha mavzularning o`ziga xos jihatlari va ahamiyati bor. Maktablarda boshlang'ich geografiya, tabiiy geografiya ta'limidan so`ng iqtisodiy ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari bo`yicha bilim beriladi. O`qitiladigan mavzular darsdan darsga o`tgan sari murakkablashib va dolzarblashib boradi. Hozirgi zamon taraqqiyoti, fani rivojlanib borayotgan bir paytda maktablarda o`ziga xos ta'lim jarayonini tashkil etish, o`quvchining bilim olishi uchun turli vositalardan foydalanishga o`rgatish muhim masaladir.

O`quvchining erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash va uni ma'lum bir mutaxassisliklar bo`yicha yo`naltirishda geografiya fanining hissasi katta. Shu bilan birga bu fanni zamonga mos ravishda rivojlantirish, fan texnika taraqqiyoti yutuqlaridan bahramand etish har bir geografning vazifasidir. Maktablarda o`qitiladigan har bir mavzularning maqsadi va mazmunini ochib berishga, noan'anaviy dars turlarini joriy etishga erishmoq zarur.

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda 8-sinflarda o`qitiladigan «Surxondaryo iqtisodiy geografik rayoni» mavzusining maktab geografiyasida tutgan o`rni va ahamiyatini, mavzuni o`qitishning ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlarini, mavzuni o`qitishning metodlarini, dars tashkil etish turlarini, mavzuni mustahkamlash va uyga topshiriqlar berish yo`l yo`riqlarini, dars o`tish jarayonida karta, diagramma, grafik, sxema, jadvallardan foydalanishning ahamiyatini yoritib berishga harakat qildim.

Bu bitiruv ishini yozish davomida o`zbek olimlaridan A.Soliyev, P. Musayev, O. Mo`minov, O. Otamirzaev, A. Qayumov, R. Qurboniyozovlarning asarlari, shuningdek, iqtisodiy geografiyaga oid qator adabiyotlar, ensiklopediyalar, prezidentimiz I. A. Karimov asarlaridan foydalandim.

Maktablarda o`qitishni tashkil qilish va yangicha darslar o`tish to`g`risidagi o`z fikrlarimni bayon etdim. Bu menga kelajakda maktabda har bir mavzu yuzasidan turli izlanishlar olib borishimga, bilimimni yanada chuqurlashtirish uchun harakat qilishimga turtki bo`ldi.

Navoiy shahridagi 17- umumta'lim maktabida o'quv amaliyoti davrida 8-sinflarda "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusi bo'yicha ochiq dars o'tdim. Bu mavzuni o'tish jarayonida pedagogik amaliyot rahbarim M.Bektasova maslahatlari bilan noan'anaviy dars uslublaridan dars- seminar, aqliy hujum va qatorlararo musoboqa turlarini qo'lladim. Natijada o'quvchilarning qiziqishlari va tayyorgarliklari ortdi. O'quvchilar butun dars davomida o'zaro baxs- munozara qildilar. Diagramma va kartalar bilan ishlab natija va xulosalarni bayon qildilar. Darsning yakunida o'z oldimga qo'yilgan ta'limiy, tarbiyaviy va o'quvchilar bilimini rivojlantiruvchi maqsadlarga to'liq erishdim. Darsimiz qiziqarli va mazmunli o'tdi.

Men malakaviy bitiruv ishimni yozishimda menga yaqindan ko'mak bergan kafedra professor-o'qituvchilariga o'z minatdorchiligimni bildiraman.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.-326b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzus. - T.: Sharq, 1999.- 182 b.
3. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
4. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
5. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994.-T.:O'qituvchi,-209b.
6. Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. – T.: O'zbekiston, 2006.
- 7.Ibragimov X.I.,Yo'ldoshev U.A.,Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. -T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B. 76-96 .
8. Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.-254b.
9. Kalonov B. H. Janubiy O'zbekistonda paxtachilik. – T.: Muloqot jurnali, 2005. B.15-16.
- 10.Kalonov B. H. Mamatov A. Ommobop geografiya. – T.: Zar qalam nashriyoti, 2006. - 160b.
- 11.Musayev R., Musayev J. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.
- 12.Nabiyev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.- 86 b.
- 13.Ro'ziyev A., Abirqulov Q. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. – T.: Sharq, 2001.- 144 b.
- 14.Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.- 304 b.
- 5.Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009.- 212 b.

- 16.Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so`z, 2010.- B.189-211.
- 17.Soliyev A.O'zbekiston geografiya jamiyati s'ezdan- s'ezgacha. -T.: O'zbekiston geografiya jamiyati IX- s'ezdi materiallari, 2014. – B.4-8.
- 18.Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. -T., 2013.- 226 b.
- 19.Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (1989-2009 yy.). Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010.- 276 b.
- 20.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
- 21.Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.–T.: O'qituvchi, 2007.
- 22.Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda hoan'anaviy darslar va interfaol usullrdan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006. - 76 b.
- 23.Fayzullayev M.A.Yer resurslaridan qishloq xo`jaligida foydalanishning mintaqaviy xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida). –T, O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti.44-jild. B.23-25.
- 24.Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. - T.: Mumtoz so`z, 2013.- 158 b.
- 25.8-sinf atlası.-T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo`mitasi, 2014.-B.50.
- 26.Воронин В.В., Шаригин М.Д. Экономическая, социальная и политическая география.- Самара, 2006. - 254с.
- 27.Максаковский М.Р. Общая экономическая и социальная география. - М.: ВЛАДОС, 2009.- 356с.
28. Саушкин Ю.Г. Географическое мисление. – Смоленск.: Ойкумена, 2011.- 256с.
- 29.www.ziyonet.uz
- 30.www.google.uz

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Eshonqulova Sadoqat O`ktam qizining “Umumta’lim maktablarining 8-sinflarida Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasi ” nomli bitiruv malakaviy ishiga

X U L O S A

Mazkur bitiruv malakaviy ishi Surxondaryo iqtisodiy rayonini o`qitish metodikasiga bagishlangan. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning muvaffaqiyati ta’lim – tarbiya tizimini rivojlantirish uni hozirgi zamon talablari darajasiga etkazish har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish hamda malakali kadrlar tayyorlash sifatiga bog`liqdir. Bu esa ta’lim tizimida geografiya ta’lim metodlarini takomillashtirishini ta’lim – tarbiya sifatini yanada ko’tarishni talab etadi. Talaba va o`quvchilarga beriladigan geografik bilimlarning puxtaligi, saviyasi, g`oyaviy – siyosiy, axloqiy, estetik tarbiyasi ham darslarning zamon talabi darajasini belgilaydi. Zamonaviy yosh avlod hozirgi kunda fan va texnika yutuqlaridan to`la qonli foydalanishga xaqlidir.

Zamonaviy darslarga qo`yiladigan talablar kun sayin murakkablashib bormoqda. Bu esa darsga qo`yiladigan talablarni aniqlashtirish va ayrim aniqliklar kiritishni taqozo etadi. Keyingi yillarda “an’anaviy dars”, “zamonaviy dars”, “ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar” hamda darslarni “modellashtirish” degan iboralarga duch kelmoqdamiz. Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasiga bag`ishlangan bo`lib, Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusining maktab geografiyasi ta’limida tutgan o`rni, Surxondaryo iqtisodiy rayonini mavzusini o`qitishning maqsadi, vazifalari va ta’lim- tarbiyaviy ahamiyati, Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitishda qo`llanadigan metodlar bayon etilgan.

Talaba Eshonqulova Sadoqat tomonidan “Surxondaryo iqtisodiy rayonini o`qitish metodikasi ” mavzusiga bagishlangan bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

g.f.n., dots. B.H.Kalonov

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Eshonqulova Sadoqat O`ktam qizining “Umumta`lim maktablarining 8-sinflarida Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasi ” nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mamlakatimizning eng janubida joylashgan Surxondaryo viloyati 6-mart 1941-yilda tashkil topgan. Uning maydoni 20,1 ming kv km bo`lib, jami O`zbekiston Respublikasi hududining 4,5 foizgaga teng. Viloyatda, 2012-yilning dastlabki ma`lumotlariga ko`ra 2 mln.200 ming kishi yoki mamlakat aholising 7.4 foizi yashaydi.

Surxondaryo viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida o`zining agrosanoat majmuasi, xususan paxta va g`alla yitishtirish, chorvachilik maxsulotlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu yerda tog`-kon sanoati, qurilish va formaseftika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda.

Mintaqa qator o`zining betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u Respublikamizning eng janubida, eng tog`li, eng issiq hududida joylashgan. Viloyatda urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi eng past, demografik rivojlanish, ya`ni aholi tabiiy ko`payishi eng yuqori hududlardan biridir. Surxondaryo hududining taxminan 70 foiz maydoni tog`liklardan iborat. Tabiiy geografik jihatdan u faqat janub tomonga “ochiq”, qolgan uch tomondan tog`lar bilan o`ralgan. Bunday yer ustining tuzilishi, orografik xususiyat mintaqa iqlimining shakllanishiga katta ta`sir ko`rsatadi. “Surxondaryo iqtisodiy rayoni” mavzusini o`rganishda eng asosiy ob`yekti viloyatning geografik o`rni, aholisi va xo`jalik tarmoqlari yetakchi o`rin egallaydi. Bundan tashqari viloyatning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari materiallari bir - biri bilan chambarchas bog`liqdir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida reja tuzilgan, adabiyotlar ro`yxati ko`rsatilgan, ish tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

kat.o`qit. Norov Sh.Sh.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Eshonqulova Sadoqat O`ktam qizining “Umumta`lim maktablarining 8-sinflarida Surxondaryo iqtisodiy rayoni mavzusini o`qitish metodikasi ” nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Geografiya ta’limining sifati asosan o`qituvchiga bog`liq. Davr talabidan kelib chiqqan holda, ortga qolmaslik uchun o`qituvchi bor bilimlari bilan kifoyalanib qolmasdan uni yangilab, to`ldirib va boyitib borishi zarur. O`qituvchi o`zi tinimsiz o`qib, mustaqil o`rgangan taqtiirdagina ta’lim berish huquqiga ega bo`lishi mumkin. Chunki, fan – texnika va pedagogika sohasidagi bilimlar yangilanib tobora kengayib bormoqda. Shuning uchun o`qituvchi doimo izlanishi kerak. O`qituvchi va talabalar o`z fanini yahshi bilgan, kasbini sevgan, qamrovi keng, tadbirkor, ularning ko`ngliga yo`l topa oladi,

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, o`qituvchi professional pedagog va kelajak avlod tarbiyachisi bo`lganligi uchun, o`z sohasini, fanini yaxshi bilish bilangina kifoyalanib qolmasdan, bilimlarni qay tarzda o`qituvchilar ongiga etkazish yo`llarini ham yaxshi bilishi lozim. Darsni takomillashtirish maqsadida ta’limning turli formalarini va metodlarini izlash o`qituvchiga asos bo`lib xizmat qiladi. Surxondaryo O`zbekistonning eng janubida, Amudaryoning o`ng qirg`og`ida, Hisor tog`ining janubiy etaklarida joylashgan. Surxondaryo viloyati qulay agroiklimiy sharoitlarga ega. Vegetasiya davri uzoq, haroratlar yig`indisi 5500<sup>0</sup>-5900<sup>0</sup>ni tashkil qiladi. Shu bois, bu yerda turli xil issiqsevar subtropik mevalar yetishtiriladi. Bu borada mintaqa respublikamizda alohida ajralib turadi. Vodiya anjir, anor, bodom, pista, yong`oq, uzim, xurma, sitruz mevalar ko`plab yetishtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishida yuqorida qayd etilgan ma`lumotlar berilgan, ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

**Navoiy shahar 17-maktab
Geografiya fani o`qituvchisi M.Bektasova**

HIMOYA VAQTI

Bitiruv malakaviy ishini baholash mezon
Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o`qitish metodikasi kafedras
Bitiruv malakaviy ishi himoyasi

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi	Ishning amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi
12	32	16	10

Ishning rasmiylashtirilishi	Bitiruv malakaviy ishining himoyasi	Umumiy ball	№
10	20	100	

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____

